

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida

UDK 372.0

**“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va tarbiyaviy ishlar
metodikasi” kafedrası**

Qaytarova Nargiza Qahramonovnaning

**“Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga qiziqishini innovasion
texnologiyalar asosida shakllantirish”**

Mutaxassisligi: 5A111701 – Boshlang'ich ta'lim
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Himoyaga tavsiya etaman
Magistratura bo'limi boshlig'i
_____ M.Esanov
«_____» _____ 2013 y.

“Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi va
tarbiyaviy ishlar metodikasi”
kafedrası mudiri: _____
p.f.n., dotsent X.R.Sanaqulov
Ilmiy rahbar: _____
p.f.n., dotsent X.R.Sanaqulov

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

Kirish.....	3-8
I-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovasion texnologiyalar asosida shakllantirishning nazariy asoslari.....	9-27
1.1. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovasion texnologiyalardan foydalanish holati.....	9-21
1.2. Xalq og'zaki ijodi janrlarida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.....	21-26
Birinchi bob xulosasi.....	27
II-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlik hissini singdirishda tarbiyaviy tadbirlarni innovasion texnologiyalar asosida tashkil etishning shakl va usullari.....	28-66
2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida innovasion texnologiyalar asosida kasb-hunarga qiziqtirishning shakllari.....	28-36
2.2. O'quvchilarni mehnat tarbiyasida kasb-hunarga qiziqtirishda maktabdan tashqari ishlarning usullari.	36-64
Ikkinchi bob xulosasi.....	65-66
III bob Tajriba – sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili.....	67-70
3.1. Tajriba – sinov ishlarini mazmuni va o'tkazish metodikasi.....	67-69
Uchinchi bob xulosasi.....	70
Umumiy xulosa.....	71 -72
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	73-76

KIRISH.

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 27-yanvar kuni bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustivor maqsadimiz" hamda Vazirlar mahkamasining 2010-yil 29-yanvar kuni bo'lib o'tgan majlisidagi "Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyotini va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish" mavzularidagi ma'ruzalari mazmun-mohiyati va undagi xulosalarni o'rganish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 2010-yil 23-fevraldagi 101-F – sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan tashkiliy tadbirlarni amaliyotga joriy etish jamiyatimizdagi kun tartibidagi bosh masalalardan biridir.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida "… mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish ustivor maqsadimiz" degan fikr mulohazalaridan jamiyatimizda barkamol avlodni tarbiyalash boshlang'ich ta'limning asosiy vazifalaridan biri ekanligi gavdalanadi. Ayniqsa, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lim va tarbiyaning tub maqsadi kuchli fuqarolik jamiyatining barpo etilishiga xizmat qilishi asosiy maqsadimiz ekanligi Sharqona tarbiya mazmunida xis etilishi zaruriyati mavjuddir. ."¹ -deb takbdlfydilar.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar davlatimizning oldiga ta'lim tizimini rivojlantirish bilan bog'liq muhim masalani qo'ydi. Ijtimoiy hayot tubdan o'zgargan bir sharoitda ta'limning yangi texnologiyalari va usullarini qo'llash asosida bu tizimni jadal rivojlantirish talab etiladi

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ta'lim tizimini tubdan isloh qilish uni

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davo ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir // Xalq so'zi, 2010 yil 8 -dekabr

rivojlantirishning strategik yo`nalishlarini belgilab bergan. Shundan kelib chiqib xujjatda shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining asosiy sub`ektiv va ob`ektiv sifatida qaraladi, demak, Respublikada amalga oshiralayotgan o`zgarishlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchi – inson, uning barkamol rivojlanishi hisoblanadi. Savol tug`iladi: Inson qachon barkamol, komil inson bo`ladi? Qachonki, u jismonan sog`lom, vijdonan pok, ma`naviyati yuksak bo`lsa. Bunda o`sib kelayotgan yosh avlodga beriladigan ta`lim-tarbiyaning o`rni beqiyosdir. **Shu o`rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning ushbu gaplarini keltirib otishni o`rinli deb topdim: “Ma`naviyatni shakllantirishga bevosita ta`sir qiladigan yana bir muhim hayotiy omil – bu ta`lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog`liqdir... Shuni unutmasligimis kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yoritiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarimizning bugun qanday ta`lim va tarbiya olishiga bog`liq...”**<sup>2</sup> Bizning asosiy maqsadimiz ta`lim jarayonini shaxsning hayotiy qiziqishlarini qondirishga, umumiy madaniyatini shakllantirishga, uning jamiyat hayotida moslashuvi, ta`lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlay olishi hamda o`zlashtira olishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun shaxsni ma`naviy-ahloqiy tarbiyalashga shakl va metodlarini ishlab chiqish, ma`rifiy ishlarni rivojlantirish, uzluksiz ta`limning barcha bosqichlari, xususan boshlang`ich ta`lim sifati, ularning madaniy va ma`naviy-axloqiy darajalariga talabni oshirish o`quv-tarbiya jarayonini eng yangi o`quv-metodik to`plamlar, ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan to`la ta`minlash zarur. Bizning tadqiqot ishimiz ham aynan shu eng ilg`or pedagogik texnologiyalarini ta`lim tizimida, xususan, boshlang`ich ta`lim mehnat darslarida tadbiiq etishning metod, uslub va shakllarini nazariy tomondan asoslab berish hamda samarali natijalarga erishishdan iborat.

² /I.A.Karimov “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch” asari “Ma`naviyat” 2008. 60-61-bet.

Prezidentimiz I.A.Karimov 2013 yil 14 fevral PQ 1920-sonli “Obod turmush yili” davlat dasturi to’g’risidagi qarorida “jismoniy va ma’naviy sog’lom, uyg’un kamol topgan o’sib kelayotgan avlodni, professional, zamonaviy darajada tayyorlangan kadrlarni tarbiyalash borasida olib borilayotgan ishlarning samaradorligini har tomonlama oshirish, ta’lim saviyasini yanada takomillashtirish va sifatini yuksaltirish, ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash”³ haqidagi ustuvor yo’nalishdan kelib chiqqan holda, mustaqil respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilishdan ko’zlangan muhim vazifalardan biri o’qitishning ilg’or, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, interfaol usullarini ta’lim jarayoniga joriy etish orqali har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, intellektual salohiyati yuqori bo’lgan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir.

Qachonki, biz ta’lim jarayonini to’g’ri tashkil etar ekanmiz, shundagina har bir inson, ayniqsa voyaga yetib kelayotgan yosh avlod yetuk shaxsga aylanib ijtimoiy vazifasini o’zlashtirish, ijtimoiy roli, mavqei, imkoniyatlarini to’liq anglab yetadi, jamiyatning boshqa a’zolari bilan erkin, mustaqil munosabatda bo’ladi.

Tarbiyaning bosh maqsadidan biri yosh avlodni mehnatsevarlikka tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy an’analarga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi-shaxsning axloqiy yerkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarining har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun: yoshlarni erkin fikrlashga mehnat tarbiyasining mazmunini tushunib olishga ko’maklashib, o’z-o’zini idora va nazorat qila

³ [www/Norma.uz](http://www.Norma.uz) O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami portali. 2013 yil 25 fevral

bilishni shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish.

-o'quvchilarni mehnat tarbiyasida, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma'naviy me'rosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarni shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib boyitib berish va ustivor tushunchalarini shakllantirish;

-har bir o'quvchining bilimlarini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish.

Bolalar ijodkorligini, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

-mehnatsevarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mehnat jamoasida bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatish) kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim.

- mehnatsevarlik tarbiyasida dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat muloqatni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, xizmat qilish, mehnat tarbiyasi jarayonida kasb-hunar egallash jamiyat ravnaqi yo'lida xizmat qilish tushunchalarini uyg'otish lozim. Hozirgi paytda ta'lim-tarbiya asosida rivojlanib borayotgan yo'nalishlardan biri – bu zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashning dolzarb vazifasiga aylangandir. Jumladan, boshlang'ich sinf mehnat ta'limi va tarbiyasida innovatsion texnologiyalardan foydalanib, yangicha bilim va tajribalarni o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rgatish pedagog-o'qituvchilar zimmasiga katta ma'suliyat yuklaydi.

Muammoning o'rganish darajasi: Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, dars jarayonida qo'llanishining yangicha usullarini amaliyotga tadbiq etishda respublikamizning yirik pedagog olimlari; professor R.A. Mavlonova, professor J.G'. Yo'ldoshev, professor M.Ochilov, professor N.Sayidahmedov, professor U.Tolipovlar tomonidan ko'plab o'quv qo'llanma va darsliklar yaratilgan. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma va darsliklardan foydalanib, boshlang'ich sinflarda noan'anaviy

darslarni tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman. Shu bois men magistrlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish shakllari va metodlarini o'rganishni o'z oldinga maqsad qilib qo'ydim.

Tadqiqot ishi maqsadi - boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishning samarali usul va vositalarini aniqlash.

Tadqiqot ishi ob'yekti – Dars va darsdan tashqari tadbirlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini shakllantirish metodlarini qo'llash jarayoni.

Tadqiqot ishi predmeti - boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishning mazmuni, usuli, shakl va vositalar.

Tadqiqot ishining vazifalari:

1. Mehnat ta'limi va tarbiyasida kasb-hunarga oid falsafiy, pedagogik, psixologik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
2. Mehnat darslarida innovatsion texnologiyalarning qo'llanish holatini o'rganish.
3. Innovatsion texnologiyalar asosida mehnat darslarini hamda tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishning samarali shakl va metodlarini, vositalarini aniqlash.
4. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovatsion texnologiyalar asosida shakllantirishga oid tavsiyalar ishlab chiqish .
5. Tajriba–sinov ishlarini tahlil qilish, natijalarni aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda boshlang'ich sinf mehnat ta'limi va tarbiyasida innovatsion texnologiyalar asosidagi noan'anaviy darslarni tashkil etishning usul va vositalaridan foydalanish mumkin.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga qiziqishini innovasion texnologiyalar asosida tashkil etishning mazmun va mohiyati ochib berildi;
- boshlang'ich sinf mehnat ta'limi darslarida kasb-hunarga qiziqishini innovasion texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi va uning dolzarbligi asoslandi;
- boshlang'ich sinf mehnat ta'limida kasb-hunarga qiziqishini innovasion texnologiyalar asosida tashkil etishning maqbul shakl, vosita va usullari ishlab chiqildi, shuningdek, amaliyotga tatbiq etildi;

Tadqiqotning metodologik asoslari: Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasiga oid g'oyalari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining ta'lim sohasiga oid me'yoriy xujjatlari.

Tadqiqot ishining metodi – mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish, kuzatish, suhbat, anketa, yozma-og'zaki so'rovlar.

Magistrlik dissertatsiyasi 3 bob, 5 fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib ----- betni tashkil etadi.

I-bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovation texnologiyalar asosida shakllantirishning nazariy asoslari.

1.1. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini innovation texnologiyalardan foydalanish holati.

O'zbekiston o'z istiqlool va taraqqiyot yo'lida rivojlanib, xalqaro maydonda o'zining munosib o'rnini topmoqda. Davlatimizning mustaqil taraqqiyot yo'lini ta'minlash uchun ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarda chuqur islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat va inson manfaatiga qaratilgan bu islohotlarning samarasi bevosita ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlarning salohiyatiga bog'liqdir.

Kasbga yo'naltirishga yoshlarning kasbni erkin va mustaqil tanlashning ilmiy-amaliy tizimi sifatida qarash lozim. U har bir shaxsning ham individual xususiyatlarini, ham xalq xo'jaligi manfaatlari nuqtai nazaridan mehnat resurslarini to'laqonli ta'minlash, bozor iqtisodiyoti munosabatlari zaruratini hisobga olish kerak. O'quvchilar shaxsni shakllantirishning omili sifatidagi mehnat tarbiyasining samaradorligini oshirishga kasb tanlashlarini puxta o'ylab tashkil qilishi katta ahamiyatga ega. Har bir o'quvchining oldida o'zi yoqtirgan kasbni tanlash uchun keng imkoniyatlar bor.

Har qaysi maktabdagi kasb tanlash ishlarining vazifasi va mazmuni uning atrofdagi ishlab chiqarishning xususiyatlari, tabiiy sharoitlari mazkur iqtisodiy tumandagi xalq xo'jaligi va madaniyatining rivojlanish yo'nalishlari bilan belgilanadi. Maktab o'z tarbiyalanuvchilarini kasblar, mehnatning mazmuni, u yoki bu kasb egalariga qilinadigan talablar haqidagi bilimlar bilan qurollantirish o'quvchilarning individual. Jismoniy va psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularga ana shu xususiyatlarga mos kasblarni tanlashlarida yordam berish kerak.

Mehnat va kasbiy tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini, ta'minlash kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradigan ulkan ishlardan biri bo'lib juda o'tmish taraqqiyotiga egadir. Xalqimizning millat, xalq. Elat bo'lib shakllanish mehnatsiz, hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Inson paydo bo'lishidan boshlab mehnat bilan shug'ullangan, turmush buyumlari yasagan namunalar bajargan. 12-15 asrlarda Movorounnahr va Xurosonda hunar ilmi rivojlanishi eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan. Har bir xalq ota-bobosidan meros bo'lib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan o'zining tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib o'ziga xos xususiyatlarini saqlab kelgan. Respublikamiz hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hunarmandchilik bu yerlarda ikki ming yillar oldin rivojlangan. Bu davrda sinfiy jamiyat paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan.

Hunarmandchilikning qadimiy davrlarida eng ko'p tarqalgan turi temirchilik, zargarlik, misgarlik va tunukasozlik bo'lgan. Hozirgacha keng tarqalgan qadimiy kasblardan biri yog'och buyumlari yasash hunarmandchiligidir. 20- asr boshlarida tikuv mashinalari paydo bo'lishi bilan yangi hunarmandchilik kasb yuzaga keldi. Shu bilan birga, hunarmandlar terida payafzal, nonvoylik. Qassoblik, oshpazlik kasblari yuzaga kelgan. Ulug' bobokalonimiz Alisher Navoiy o'z g'azallarida yoshlarni ilm hunar egallashga chaqiradi.

Ilm kasbini qildi to joni bor,

Hunar o'rgandi ongaki imkoni bor.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning asosiy maqsadi va bir o'quvchiga individual ravishda kasb yoki mehnat faoliyati sohasini asosan va to'g'ri tanlashda yordamlashishdir. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish umumta'lim maktabi ishining tarkibiy qismidir. Ma'lumki, agar kasb to'g'ri tanlangan bo'lsa, inson uchun mehnat quvonch, ijodiy ilhom manbaiga aylanadi. Kasb tanlashga yo'llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umum maktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta'limi alohida o'rinni egallaydi. O'quvchilarni kasb tanlashda asosiy omillar ota-ona, muhit va ta'lim-tarbiyadir. Kasb tanlashning asosiy vazifasi o'quvchilarni fan asoslari poletexnik mehnat va malakalari bilan qurollantirishdan, ularni mehnat va ijtimoiy

faoliyatga, kasblarni ongli ravishda tanlashga, moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarishda ishtirok etishga tayyorlashdan iboratdir.

Maktabda kasb tanlash ishlarni quyidagi maqsadlardan iborat:

1.O'quvchilarni kichik sinflardan boshlab, xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib borish.

2. O'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari bilan tanishtirib, ommaviy kasblarning mazmuni, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni amalga oshirish.

3. Kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda o'quvchilarni asosan maktab joylashgan hududning korxona, tashkilotning ehtiyoji uchun zarur bo'lgan kasb va mutaxassislarga yo'llash.

Har bir o'quvchining bo'lajak kasbini tanlash ob'ektiv va ongli harakatga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash sohasida oldiga qo'yilgan maqsadlarini amalga oshirish uchun quyidagi eng muhim vazifalar hal etilishi lozim.

1.Ularning qiziqishlari, mayli va qobiliyatlari, psixofiziologik imkoniyatlari. Jismoniy tayyorgarligi va salomatligini o'rganilishi.

2.Ularning kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirishga doir tadbirlarning o'ylab ko'rilishi.

3.Tanlangan mehnat sohasidagi amaliy faoliyatning tashkil etilishi o'quvchilarning kasbga qiziqishlarini rivojlantirishga va mustahkamlashga yordam beradi.

4. Maktabni bitirib chiqayotgan yoshlarning kasbga qat'iy qiziqishlarini tarkib toptirish va mustahkamlashda yordam ko'rsatish, ishlab chiqish sharoitlariga, ko'nikishiga doir tadbirlar belgilanishi kerak.

Kasb tanlash juda muhim masala bo'lib. Ko'pincha o'quvchilar uni mustaqil hal qila olmaydilar. O'quvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashning farq va metodlarini belgilab beradi. Ulardan asosiylari quyidagilardan iborat:

1.Darslarda kasb tanlashga yo'llash. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotlarda bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Yog'och kesuvchi, rom yasovchi, parmalovchi kasblar haqida bilim oladilar. Metalga yoki gazlamalarga ishlov berish parmalovchi, tikuvchilik va hakazolar bilan tanishtirish.

2.Ekskursiyalarda kasb tanlashga yo'llash. Odatda, ekskursiyalarda o'quvchilarni o'quv rejasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin.

3.To'garak mashg'ulotlarida kasb tanlashga yo'llash. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi.

4.Maktabni bitirgan o'quvchilar ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar. Odatda, mazkur maktabni bitirgandan keyin sanoat muassasalarida ishlayotgan kishilarning chiqishlari o'quvchilarda katta taasurot qoldiradi. Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar turli kasb egalari bilan tanishadilar.

5. Har xil madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish. Kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan "Kasblar dunyosi", "Kasb tanlashda shaxsiy va jamoat fikri" mavzusida munozaralar uyushtirish, kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir.

6. Kasblarni chuqur o'rganish. O'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab guruh yoki mikroguruhlariga birlashtiradilar. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. Jumladan, rivoyatlar, berildi. Masalan. –“hunar “ haqida rivoyatlar.

Ey farzand, agar oqil va dono bo'lay desang, hunarmandlik kasbini tanlab, hunarmandlik kasbidan izzat va hurmatga yetishasan, agar xunarmandlik -

kasbidan bebaxra bo'lsang, kup-quruq, soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Agar aql va donishing bo'la turib, kasb-hunarsiz bo'lsang, donishing surat va xaybatsiz bir badan yoki mevasiz daraxt kabidir.

Ey farzand, o'z nasibangga, ota-bobongning martabasiga, mansabiga g'ururlanib ilmu hunar, kasbni o'rganishdan zinhor oru - nomus qilma, ota-ona mansabiga mag'rur bo'lib, mehnatdan qochish, ilmu hunar o'rganmay qolish johil va nodon kishilar ishidir. Oqil va donolar mehnatdan qochmaydilar, ilmu hunar o'rganadilar. Shuni yaxshi bil, oliy mansablik bo'lsangu aql, donishing, hunaring kasbing bo'lmasa, undan senga nima foyda?

Qadim zamonda bir podshoh bor edi. Bir usta zargarga : «Mening barmog'imga loyiq qimmatbaxo uzuk yasab keltir», deb buyurdi. Usta zargarga la'l va yoqutdan bir pokiza, qimmatbaho uzuk yasab keltirdi. Podshoh uzukning qoshini teskari qilib barmog'iga taqdi. Achchig'lanib ustaga bir necha qamchi urdirdi.

- Mening nima aybim bor, nega qamchilatdingiz? - dedi usta bechora yig'lab.

- Sen uzukni yanglish yasabsan. Shuning uchun jazo berdim.

- Bu ishda mening aybim yo'q, ayb o'zingizda, uzukni barmog'ingizga teskari soldingiz.

Podshoh uzukni barmog'iga to'g'rilab taqdida, senga bekorga jazo bergan ekanman, rozi bo'l, deb ustaga in'om-ehson qildi. Turmushda ba'zan ana shunday «dono» kishilar ham uchrab turadi.

Ey farzand, aqlli, farosatli va ilmu hunarli-kasbli kishilar bilan do'st bo'l, hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, kasb-hunar o'rganishdan uzoqlashma."Mehnat yediradi, hunar kiydiradi" haqidagi rivoyat.

Qadim zamonlarda bir kishining uchta o'g'li bor ekan. Vaqti-soati kelib, otaning qazosi yaqinlashgach, bolalarini yoniga chaqirib, shunday dedi: bolalarim, sizlarga qoldiradigan mol- mulkim, tilla- kumushlarim yo'q. Faqat ikki og'iz so'zim bor. Shunga amal qilsangizlar, kamchilik tortmay, yaxshi yeb, yaxshi kiyib yurasizlar, debdi. «Uyquni shirin qilib uxlanglar, ovqatni shirin qilib yenglar», -

debdi-da omonatini topshiribdi. Bu gapni katta va o'rtancha o'g'il bir xil tushunishibdi, kenja o'g'li esa boshqa narsani o'qibdi. Katta o'g'il hovlisiga suv septirib, daraxt tagidagi supaga qalin joyni tushab, vaqti-vaqti bilan yonboshlab, otam aytganidek «Uyquni shirin qilish kerak», deb, usma-ust ovqatlar qildirib, «Otam aytganidek, ovqatni shirin qilib yeyish shu-da», deya turli xil taomlar tanovvul qilib yuraveribdi. O'rtancha o'g'il ham akam otamning aytganini o'rniga qo'ydi, men ham shunday qilaman, -deb u ham «Ovqatni shirin qilib, uyquni shirin qilib» yashayveribdi. U yoqqa ag'anab, bu yoqqa ag'anab, yeb, ichib, yegan ovqatining ham, uxlagan uyqusining ham mazasini bilmay yuraveribdi.

Bora-bora aka-ukaning yeyishga ovqati-yu, kiyishga kiyimi, yotishga ko'rpasi qolmay, nochor ahvolga tushib kolishibdi.

Kenja o'g'il temirchilik hunarini o'rganibdi. U ishlab, xorib-charchab, kelganda yegan qattiq noni-yu, ichgan suvi borgansari shirin tatiyveribdi, ustiga -ustak davlati ziyoda bo'lib, ketaveribdi.

«Mehnat yediradi, hunar kiydiradi» degani shu bo'lsa kerak.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borish to'g'risida tushuncha berish, kasbga yo'naltirish ishlarining ko'lami va mazmuni yanada kengayadi. Bu jarayon endi butun pedagogik jamoa tomonidan ota-onalar va jamoatchilik bilan hamkorlikda tuzilgan "o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish kengashi" barcha ishlarni muvofiqlashtirib, maqsadga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinflarda ham har bir fanni o'qitish yoki sinfdan, maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazishga o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish kengashi" barcha ishlarni muvofiqlashtirib, maqsadga yo'naltiradi. Maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazishga o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish nuqtai nazaridan yondashilsa, bu kichik maktab yoshidagi bolalarga kasblar to'g'risida ma'lumotlar berish, ularning qiziqishi va moyilliklarini uyg'otish, kasb tanlash motivlarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Boshlang'ich sinflarda kasb-hunarga doir ma'lumotlar berish, o'quvchilarning layoqat, qiziqish va qobiliyatlarini o'rganish va kasbiy

maslahatlar berish, ularni ongli kasb tanlashga tayyorlash bolalarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Ma'lumki, har bir olti-etti yoshli bola tibbiy, psixologik-pedagogik tashxis natijalari asosida maktabda o'qishga qabul qilinadi. O'qishning birinchi kunidan boshlab har bir o'quvchiga "Psixologik-pedagogik tashxis daftari" ochiladi. Bu daftarda o'quvchining 1-9 sinflarda o'qish davomida u bilan o'tkazilgan psixologik-pedagogik tashxis va kasbiy maslahatlarning natijalari muntazam qayd etib boriladi. Bundan har bir o'quvchi shaxsning ma'naviy-ruhiy va aqliy rivojlanish, shuningdek, o'quv motivlari, qiziqish va qobiliyatlaridagi sifat o'zgarishlar dinamikasini doimiy kuzatib, tahlil etib borishi va tegishli pedagogik-psixologik tuzatish rivojlantirish tadbirlarni aniq belgilash imkoni tutiladi. Ya'ni maktabda o'qishning birinchi kunidan boshlab har bir o'quvchi uchun kasbga yo'naltirish individual dasturini tuzish mumkin bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ko'proq bevosita o'qituvchi tomonidan amalga oshirilsada, ularni doimiy psixologik o'rganib borish, tashxis natijalari asosida, ota-onalar va o'qituvchilarga maslahatlar berish, joiz bo'lganda maxsus psixokorreksiya mashg'ulotlarini o'tkazish maktab psixologi vazifasiga kiradi.

Boshlang'ich ta'limning oxirida har bir o'quvchi chuqurlashtirilgan tibbiy, psixologik-pedagogik va kasbiy tashxisidan o'tkaziladi. Tashxis natijalari asosida o'quvchining sog'ligi, tug'ma layoqati, qiziqishi, qobiliyati asosida dastlabki kasb-hunarga moyillik yo'nalishi aniqlanadi. Bu ularni 5-sinfdan boshlab ixtisosliklarga yo'naltirilgan sinflarda o'qishga jalb etish uchun asos bo'ladi.

Kasb-hunar tarbiyasi uzoq asrlar davomida shakllangan ajdod-avlodlarning axloqiy, ma'rifiy shakllanishi va kamolotida muhim o'rin egallab kelgan. Kasb-hunarning inson taqdiridagi ahamiyati shundaki u doimo o'zining hayotiyligi, ta'sirchanligi, mehr-muruvvatligi bilan Vatanni mustahkamlashga, xalqni birlashtirishga xizmat qiladi. Kasb-hunar doimo hayot va inson muammolarini moddiy va ma'naviy jihatdan hal etishda o'z ta'sirchanligini namoyish etadi. Tarbiyaning dolzarb masalalarini yechishda asos bo'lib xizmat qiladi. O'zbek

xalqining mehnatsevarligi tarix to'fonlariyu ur yiqitlariga bardosh berib, tajriba-sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, toblanib, har bir davrda o'z faoliyatini takomillashtirib, avlodlar tarbiyasida hal qiluvchi rolni o'ynab keldi. Quyida biz boshlangich sinflarda qo'llaniladigan xalq maqollaridan misollar keltiramiz.

Mehnat-salomatlik garovi.

Mehnat qilgan dard ko'rmaydi.

Mehnat -tanga davo, jonga-shifo. (Nosir Buxoriy).

O'g'il topsin san'at-hunarda kamol

Bu hunar bilan u tera berar mol. (Yusuf Xos Hojib).

«Baxt yo'lda emas, qo'lda»;

«Baxt qushini ushlamoq uchun, baxt oviga chiqmoq kerak»; «Baxtli odamni izlama, baxt yo'lini izla», degan maqollar ham borki, bular bilan: «quruq tilak, orzu-istak, umid Baxt –tilakda emas, bilakda. «Kishining baxti-bel, bilagi bilan baxtga erisholmaysan, bilagingni ishga sol, mehnat qil», demoqchi bo'ladilar.

Birni kessang o'nni ek. Xalqimizning bu va bu singari bir turkum maqollarida ko'chat ekish, bog' qilishga targ'ib etiladi: «Bir daraxtdan o'n bo'lur, o'ntasidan-o'rmon»; «bir tup tok eksang, bir tup tol ek», «Bog'bonning tol ekkani-o'ziga nom ekkani».

O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, bayramiga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash:

-qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy ma'suliyat hislarini rivojlantirish. O'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya.

-mustaqil davlatimiz –O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga

yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatni to'g'ri tushuntirmoq kerak.

-turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan ijodiy yondoshlik vazifalarini shakllantirish,

-sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish,

-yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish. Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

-tarbiya-tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har-bir bola, o'smir va yosh yigit-qizning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

-yoshlarga istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

-milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

-shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishga va turli yoshdagi. Bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xoxish va ehtiyojlarga suyanagan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi:

Sinfdan tashqari ish ishlarni o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi-yangi imkoniyatlar yaratadi.

Tarbiya-bu insonni ijtimoiy tarbiyalar bilan, uning barcha shakllariga-bilim, xis-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va ichki

o'ziga xos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarni rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va qobiliyatlari tizimida individual va ijtimoiylik nisbatlari muammosi, tarbiya nazariyasida esa markaziy muammo bo'lib, shaxs jamiyatdan tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzot xisoblanadi. Jamiyat o'z navbatida shaxslardan tashki topadi. Jamiyat o'z navbatida shaxslar o'zaro munosabatlari jarayoni natijasidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo'q, va jamiyat ularda bo'g'liq bo'ladi.

Shaxs jamiyat emas. U jamiyatda paydo bo'lib, o'zini amalga oshirish jarayonida madaniyatni o'zgartiradi, ba'zan madaniyati rivojlanishida shunchalik ilgarilab ketadigan o'n yillar, davomida jamiyat xotirasida qoladi.

O'zida jamiyat madaniyat uning inomlarini mujassam etganligi sababli, shaxs ijtimoiy tajribasi, uni yangicha talqin qilishda, ma'naviy va moddiy qimmatliklarining yaratishda, qayta anglashda mustaqil avtanom bo'lib qoladi.

Bunday shaxs uning zamondoshlari uchun ta'lim bo'lgan begona tajribani olib kiradi, faqat vaqt o'tishi bilan asta-sekin jamiyatda ko'rib boradi. Bunday shaxs o'zini jamiyatda qarshi qo'yishi, unga qarshi chiqishi va u bilan kurashishga kirishish mumkin.

Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy sub'ekti sifatida ishtirok etadi. Hatto eng qulay ijtimoiy shaxslarda ham, ular birlashmaydilar va ular bir-birlariga qarama-qarshi turishlari mumkin.

Tajriba jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi. Ijtimoiy tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularni odam bo'lishlari, rivojlanishlari, shaxsiyliklari va indudiktualliklri, jamiyatning ishlab chiqish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadilar. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi.

Tarbiya-ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi.

1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlarida jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirish amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.

2. Tajriba-doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyat yuzasiga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud. U jamiyatning mavjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlashning muhim vositasi xisoblanganligi uchun tarbiya zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklari va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'likliklar aks etiradi.

Tarbiya – o'zining bir qismi sifatida ta'limni ham o'z ichiga oladi.

1. Tarbiya ijtimoiy-tarixiy rivojlanish bir bosqichida, o'zining vazifalari, mazmuni va shakllari bo'yicha aniq tarixiy xususiyatga ega bo'ladi. U jamiyat hayoti xususiyatiga va tashkil etilishi bilan bo'g'liq, shuning uchun o'z davrining ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Sinfli jamiyatda turli, sinflar, qatlamlar va guruhlar bolalarni tarbiyalash asosiy tendensiyalari ba'zan qarama-qarshi bo'ladi.

2. O'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash-ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o'zlashtirishlari hisobidan, ularni katta avlod ijtimoiy munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zarur faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi.

Kattalarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab yetishlari asosida, jamiyatda bolalar va jamiyat manfaatlari yo'lida tarbiyalash qonunlaridan tushunchalardan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi.

Shunday qilib, tarbiya ijtimoiy hodisa jamiyat va indierdning hayotini ta'minlash sifatida zarurdir. U ma'lum tarzda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayot tarzi natijasidagi aniq tarixiy sharoitlarda

amalga oshiriladi, uni amalga oshirish asosiy mezonlar-shaxsning xususiyatlari va sifatlari hayot talablariga mos kelishi darajasi hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida butun ijtimoiy hayotining tabiiy bir qismi hisoblanadi. Shuning uchun qarama-qarshiliklari, ijtimoiy hayotning eng umumiy qarama-qarshiliklarining ifodasi hisoblanadi. Tarbiya aks ettiradigan bunday qarama-qarshiliklar qatoriga qotib va eskirib qolgan ishlab chiqish munosabatlarining ishlab chiqarish kunlari rivojlanishlarini ortga surish natijasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar kiradi. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy tarbiyaga, o'sib kelayotgan avlodni tayyorlashga konservativ yondashuvga mustahkam o'rnashib olishi ko'rinishga namoyon bo'ladi. Bizning mamlakatimizda ijtimoiy hayotini va ishlab chiqarish o'sishni ortga surishga olib keladi.

Davlat mulkchiligi va rivojlantiruvchi ustunligi ijodiy shaxs va tashabbuskorligiga ko'pincha to'sqinlik qiladi. Xalq ta'limi tizimida bu o'zining mazmuni, shakli va metodlarini qandaydir rasmiylash hamda bir xilligi bilan ifodalanadi. Tarbiyadagi boshqa bir qarama-qarshiliklar hayot talablari va shaxsning ijtimoiy hayotiga va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarligi darajasi o'rtasida yuzaga keladi.

Hayot talablarini anglab yetish, mana shu talablar asosida tarbiya mazmunini va tashkil etilishini ko'ra bilish ilmiy-texnik taraqqiyot rivojlanishidan ortda qoladi. Ushbu qarama-qarshilik chuqurlashib borgan sari o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy tayyorlashga olib keladi.

Tarbiyaning to'rtinchi qarama-qarshiligi bolaning faolligi uning ijtimoiy hayotga, turli munosabatda, muammolarda ishtirok etishga intilishi va hayot jarayonida amaliy, haqiqiy ishtirok etish uchun tajriba, bilimlari, malaka ko'nikmalari yetishmasligi va uning tabiiy hamda ijtimoiy yetuk emasligi o'rtasida kuzatiladi.

Ushbu qarama-qarshilik bolalar uchun idrok etishga haqiqiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. U bolani faqat tarbiyaviy o'zaro

munosabatlar ob'ekti sifatida emas, balki sub'ekt sifatida ham ijtimoiy hayotda ishtirok etishga ta'lim tarbiyaviy tayyorlashga sabab bo'ladi.

1.2. Xalq og'zaki ijodi janrlarida mehnat tarbiyasining targ'ib etilishi.

Mehr-oqibat, komil inson shakllantirishda mehnat tarbiyasining o'rnini juda kattadir.

Mehnat inson hayoti uchun, uning faravon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

Mehnat faravon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy shartli bo'lganligi sababli hamma fidokorlar uchun majburiydir.

Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflanadigan vaqti, aqliy va jismoniy kuchi yoki jasur faoliyatidir.

Mehnat inson hayotining sir mazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, o'z kelajaklarini yaratadilar.

O'zbek xalqining og'zaki ijodi ma'naviy madaniyat shakllarini va rivojlanishi qonunlar asosida shakllanib va rivojlanib, xalqning tarixiy rivojlanishi qonunlar asosida shakllanib va rivojlanib, xalqning tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy va sinfiy munosabatlari, milliy psixologiya va характери o'ziga xosligi bilan, boshqa mamlakatlar bilan madaniy avlodlari bilan belgilangan o'zining xususiyatlariga ega. Shuning uchun o'zbek xalq og'zaki ijodida samimiyatni tarixiy rivojlanishini, undagi sinfiy va ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ochib berishga, dunyo qarashni rivojlantirish darajasini bilishga ko'maklashadigan holatlar bilan bir qatorda ilg'or g'oyalarni yosh avlodni an'alarida tarbiyalashda foydalanish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Xalq eposi asoslari hunarmandlar mehnatini kuyladi, ular hayoti haqida, hunarmandchilik mohiyati tushuncha beradi.

Buyuk xalqimiz, otalar va bobolarning o'zaro bir- biriga hurmatini qadrlaydi. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining barcha asoslarini

pedagogik bo'lib, bolalarni kattalarga xususan ota-onalarga hurmatda tarbiyalash, ularda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish fikri xizmat qiladi. Masalan: “Zumrad va Qimmat” ertagi bolalarni oiladagi mehnatga odatlantirishga qaratilgan.

Maqol va matallarda mehnatkash xalqi o'ylari, axloqiy normalari va mehnat muammolari aks etgan. Avloddan avlodga o'tib ular aniqlanib, qo'shilib asta sekin qisqa, ammo o'tkir va aqlli qoidalarga aylangan.

Xalq maqollarida yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bilan kasb-hunar egallashga da'vat ham asosiy o'rinni egallaydi. “Hunar o'rgatish uchun ham hunar kerak, hunar yoshdan, -aql boshdan, kasbi yaxshining asabi yaxshi. Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan rizqing unar. Yigit kishi er bo'lur, mehnat qilsa sher bo'lur” kabi mazmunli maqollardan xalqimiz bolalarni tarbiyalash vositasi sifatida foydalanadilar. Mehnatkash xalq ijod qilgan maqollar mehnatni, o'zaro yordam va hamjihatlikni ulug'laydi.

“Daryo suvini bahor toshirar,
Odam dardini mehnat oshirar”.

“Oltin o'tda bilinar,
Odam - mehnatda”.

“Qunt bilan o'rgan hunar,
Hunardan rizqing unar.
Hunari yo'q kishining
Mazasi yo'q ishining.

Faqat yaxshi mehnat qilib, inson maqsadga erishishni va baxtli bo'lish mumkin.

Bu fikrni xalq bolalarga ibtidoiy jamoada, so'ng feodal va boshqa davrlarda ham singdirgan.

Bizning fikrimizcha, kasb-hunarga qiziqtirishda mehnat an'alarini qo'lash pedagogik-psixologik yondashuvga quyidagi sifatlar kiradi:

-mutafakkirlar merosidan foydalanib o'quvchilarda oila manfaati uchun mehnat qilishga qiziqishini shakllantirish.

- mehnat qilish ehtiyoji va qobiliyatini rivojlantirish;
- turg'un iroda sifatlarini tarbiyalash;
- mahalla, jamoatchilik tarbiyasini tarkib toptirish;
- oilada mehnat, kasb-kor, hunar madaniyati haqida tushunchalarni shakllantrish.

Xalq –insoniyatning oliy axloqiy boyliklarini, jumladan eng qimmatli an'analarini ijodkoridir.

Xalq o'z an'analarini o'zining mustaqilligi uchun matonatli kurashda ijod qilgan, ularni mehnatda, chet el bosqichlari bilan kurashda chiniqtirgan.

An'analarning ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy mazmuni keskin sinfiy tortushuvlar davrlarida ayniqsa yaqqol yuzaga chiqqan. Ommaviy xalq harakatlari davrida insonlar katta ijtimoiy ehtiyojlar bilan yashaganlar, kelajak uchun kurashadilar va shu davrda yuksak an'analari shakllanadi.

Taraqqiyot jarayonida milliy karakter xislatlari va insonlar ruhiy tizimini xususiyatlari bilan bir qatorda yangi ijtimoiy munosabatlar natijasida hosil bo'lgan va barcha millatlarni yuksak an'analarni mujassamlashtirgan ma'naviy qiyofaning umumiy hujjatlari shakllanadi va rivojlanadi.

An'analarga faqat shunday tarixiy yondashish ular rivojlanishning murakkab dialektikasini ochib berish mumkin, an'analari tarixida qaysinisi esa ixtiyoriy davr uchun xos bo'lgan insonlar ijtimoiy ehtiyoji bilan birga vujudga kelganligini aniqlash mumkin.

Tarbiya inson jamiyati bilan birga mehnat va ma'naviy tarbiya sifatida paydo bo'lgan. Ijtimoiy-me'yoriy tajribani mustahkamlash va uzatishning eng qadimgi shakli odat bo'lgani tufayli jamoada ham "umumiy aloqa, jamiyatni o'z, intizom, mehnat tartibi odat, an'ana kuchi tufayli ishlangan".

Axloqni hamda axloqiy tarbiyani tiklashi va rivojlanishi birinchi navbatda turli an'ana va odatlar shakllanishi va rivojlanishi bog'liqdir.

Mehnat an'analari insonlarni mehnat malakalari va mehnat jarayoni ko'p marta qaytarish natijasida shakllangan va odatda aylangan insonlarni o'ziga xos axloqiy, psixologik sifatlarini yig'indisidir.

Xalqning mehnat an'analari mehnat doirasida axloqiy munosabatlarini amalga oshirish mustahkam o'rnatilgan uslublarining mustaqil sohasini hosil qiladilar. Mehnat an'alarining ma'naviy mazmunini hosil qiladigan g'oyalar, xis-tuyg'ular, tuzilmalar to'plashi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi.

1. Xalq avlodidan yuqori baholangan mehnatkashlarning sifatleri.
2. Xalqqa taaluqli elementlar boshqa insonlarning mehnat yutuqlaridan quvonib, mehnatga hayot mazmuni sifatida qarash lozim.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari me'morchilik obidalari va boshqa narsalar ana shu mehnatning mavjuddir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan al-Xorazmiy, ibn Sino, Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan va yoshlarni ham mehnatni sevishtga, mehnat sevar bo'lishga chaqirishgan.

Mehnat hayot chirog'iga yo'q qo'yib turadi. Mehnat bilan charxlanib turmagan kuch susayadi. Ishlamaslik har doim lanjlikni keltirib chiqaradi, lanjlikdan keyin esa nogironlik keladi

Mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shuning uchun bolalarni juda kichik yoshdan boshlab mehnatga o'rgatish zarur. Sharq madaniyatining buyuk namoyondasi Mirzo Ulug'bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne'matlarni tejab-tergab tasarruf to'g'risidagi bilimlar berish kerakligini ta'kidlagan.

Yoshlar bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalarining to'g'riligiga bevosita kuzatuv orqali ishonch xosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Umuman ma'rifatparvarlar yoshlarning mehnat ta'limi va tarbiyasi masalalariga aloxida e'tibor berib turli asoslarida yoshlardagi qiziquvchanlik, tejamkorlik, do'stlik va odamiylik kabi olijanob fazilatlar

mehnat orqali vujudga g'oyat va'sirchan shakllarda ifodalanganlar, ular yoshlarni kasb-hunar o'rgatishga, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga munosib faoliyat bilan shug'ullanishiga da'vat etganlar. Mehnatkash odam kuch vaqt birovga qaram bo'lib qolmaydi degan fikrni ilgari surganlar.

Yoshlar mehnatsevar bo'lib tarbiyalanish bilan bir vaqtda inson qo'li bilan yaratilgan narsalarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka chaqirilgan. Uvolning oqibati gunoh bo'lishi ajoyib o'gitlarda, xalq og'zaki ijodida ham keng o'rin olgan.

Mehnat faqat hyotiy zarurat va moddiy faravonlik manbai bo'lib qolmay yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi.

Loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik xislarini paydo qiladi.

Mehnat kishining va kishilik jamiyatning yeng zarur yashash shartidir. Inson nima bilan faxrlansa va u nima bilan e'zozlansa, ularning hammai mehnatning natijasidir. Mehnat barcha boyliklarning manbai bo'lishi bilan birga, u inson hayotining o'zini mazmuni hamdir. Buning boisi shundaki, insonning o'zini inson sifatida shakllantirgan ham insonning qudrati nimalarga qodir ekanligini namoyon kilgan ham ana shu mehnatdir.

Mehnat tarbiyaning vazifalari ko'p qirralidir. U o'quvchilarning mehnat faoliyatiga amaliy va ahloqiy tayyorgarligining juda ko'p tomonlarini qamrab oladi. Mehnat tarbiyasining eng muhim vafasi yosh avlodda mehnat qilish istagi va intilishini tarkib toptirishi hamda ularni mustaqil davlatning turli sohalarida mehnat qilishga amaliy tayyorlashdan iborat bo'lib, o'quvchi yoshlarda mehnatga ongli va mustaqil munosabatni shakllantiradi. Bu muhim masalani ham etish o'quvchilarda mehnatga muhabbat va mehnat aqlga nisbatan chuqur hurmat kuchlarini tarbiyalashni, jamiyat foydasi uchun sidqidildan va samarali mehnat qilish mehnatda tashabbus ko'rsatish va unga nisbatan ijodiy munosabatda bo'lish umum ishi uchun jonbozlik va ma'suliyat hissi kabi yuksak axloqiy fazilatlarni tarkib toptirishni boyishni talab etadi.

Mehnatga mustaqil munosabat bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi. O'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy tayyorlash, kollektivda mehnat ko'nikmalarini tarbiyalash o'quvchilarda fan, madaniyat va texnikaga qiziqish uyg'otish va qobiliyatini rivojlantirish.

O'quvchilarni mehnatda tarbiyalash dastlab oilalarda, maktabda – o'quv-tarbiya ishining butun sistemasida, ishlab chiqarish kollektivlari mehnatida ishtirok etishlari orqali amalga oshiriladi.

Mehnat faoliyati davomida o'quvchilarning mehnat va uning mohiyati haqidagi bilimlari kengayib boradi.

Mehnatda ishtirok etishlari orqali mehnat qilish tajribalarining ortib borishi bilan o'quvchilarning mehnat qobiliyatlari ham rivojlanib boradi. Bolalarning o'quv mehnati, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda faol qatnashishlari, maktabda o'z-o'ziga xizmat qilishning keng yo'lga qo'yishni, ijtimoiy-foydali va unumli mehnatda qatnashishlari mehnat tarbiyasi vazifasini ham qilib borishda yordam beradi.

O'quvchilar mehnat tarbiyasi jamoalari xilma-xildir. Ta'lim jarayonida mehnat tarbiyasi, sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar jarayonida mehnat, o'z-o'ziga xizmat qilish bo'yicha mehnat, ijtimoiy foydali mehnat va unumli mehnat normalari tarbiyaviy ta'lim va adabiyoti bilan ajralib turadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa.

Bolalarga kattalarning mehnati, kasb-hunarlar to'g'risida so'zlab berish. Ularning mehnatini hurmat qilish lozimligini tushuntirib borish ham zarur.

Yoshlar mehnatsevar qilib tarbiyalanishi bilan bir vaqtda, inson qo'li bilan yaratilgan naqshlarni qadrlashga, ardoqlashga va uni uvol qilmaslikka chaqirilgan. Ularning oqibati gunoh bo'lishi ajoyib o'gitlarda, xalq og'zaki ijodida ham ta'kidlanadi.

Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy faravonlik manbai bo'lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi: loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik xislarini paydo qiladi.

II-BOB. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mehnatsevarlik hissini singdirishda tarbiyaviy tadbirlarni innovasion texnologiyalar asosida tashkil etishning shakl va usullari.

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tadbirlar orqali mehnatga havas hissini uyg'otish shakllari.

Mehnat fanining ahamiyati shundaki, u shaxsning ijtimoiy komil topishini tezlashtiradi. Qo'lidan keladigan mehnatga barvaqt kirishgan bollar mustaqilligi ma'suliyatligi va mulohazalligi bilan ajralib turadi. Ular ishonch bilan ishga kirishadilar, qiyinchiliklarni qat'iyat bilan bartaraf etadilar. Kattalarning mehnatiga yaqinroq bo'ladilar, inson mehnati bilan yaratilgan hamma narsani chuqurroq aniqlaydilar.

Mehnat qilish usuli bilimlarini qo'llash ob'ekti va ularning zarurligi mezoni sifatida namoyish bo'ladi. Bolalarning mehnat faoliyatida bilim va ko'nikma ularni tekshirish usullari ham yaqqol ko'rinadi. Shu tariqa bola kattalar yordamida bilim, ko'nikma va malakani, mehnat amaliyotidan o'rganadi, ularni tekshirib va baholab beradi.

DURADGORLIK, TEMIRCHILIK KASB-HUNARLARI XAQIDA MA'LUMOT (Konferentsiyali darsi)

1	Darsning maqsadi	1. Ta'limiy maqsad: O'quvchilarga duradgorlik, temirchilik kasbi haqida ma'lumotlar berish. Ularning ish turlari bilan tanishtirish. 2. Tarbiyaviy maqsad. Duradgorlik va temirchilik kasb-hunariga qiziqtirish orqali estetik jihatdan tarbiyalash. 3. Rivojlantiruvchi maqsad. O'quvchilarni duradgorlik va temirchilikka kasb-hunariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish
2	Darsning jihozlari	1. Ko'rgazmali vositalar: Duradgor va temirchilar tasvirlangan rasmlar, ish qurollaridan namunalar, slaydlar.
3.	Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	1.Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy hujum 2.Shakl: Suxbat, savol-javob 3.Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizimda baholash

4	Dars jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1.Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) Darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa b) Uyga vazifani mustahkamlash 7 daqiqa 2. Asosiy qism: 25 daqiqa Aqliy hujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa Amaliy ish 15 daqiqa 3.Yakuniy qism: 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash Uyga vazifa berish Uyga vazifa berish
---	---	--

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism:

- A. Salomlashish.
- B. Davomatni aniqlash.
- V. Uy vazifasini tekshirish.
- D. O'qituvchi konferentsiya darsi bulishidan oldin guruhlariga qanday manbalardan foydalanish haqida ko'rsatmalar beradi.

2. Asosiy qism

Aqliy hujum orqali o'quvchilarning Duradgorlik va Temirchilik kasb - hunarlari haqidagi fikrlarini aniqlash:

- a) Duradgor kim?
- b) Temirchi kim?
- c) Ular qanday asboblardan foydalanishadi?

Yangi mavzu bayoni.

Bugungi darsimizni o'yin tariqasida utkazamiz.

O'qituvchi: - qani o'quvchilar, hozir biz sizlar bilan ajoyib o'yin o'ynaymiz. O'yinimiz sharti qo'yidagicha: Barchamiz ikki guruhga ajralamiz:

1-guruh nomi – Duradgor

2-guruh nomi – Temirchi

Endi har bir guruh o'z nomidan kelib chiqib shu kasb-hunar va ularning ish materiallari xaqida ma'lumot beradi.

- 1- Duradgor: Duradgorlik kasbi juda qadimiy kasblardan biri bo'lib hisoblanadi. Odamlarning paydo bo'lishi bilan yog'ochlarni ishlash ishlari qilina boshlagan. Odamlar o'zlariga turli xil mehnat va ov qurollari yasagan, ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan buyumlar tayyorlay boshlagan. Qaysi sohani olmang, duradgorlik ishlari mavjud. Shuning uchun u juda faxrli kasb-hunar hisoblanadi.
- 2- Temirchi: Temirchilik kasbi juda qadimiy kasblardan biri. Ota-bobolarimiz temirdan pichoq, ketmon, bolg'a, bolta, uroq va boshqa shunga o'xshash temir buyumlarni tayyorlashgan. Ular baquvvat, epchil, sabrli kishilar bo'lishadi. Qadimgi dunyo xalqlari faqat oltin, kumush, mis, qalay, qurg'oshin, temir, simob kabi 7 ta metallnigina bilishgan.

- 3- Duradgor: Yog'och materiallari bizning faoliyatimizda asosiy xom ashyo bolib hisoblanadi. Tabiatdagi daraxtlarni kesib, arralab, taxta materiallari tayyorlanadi. Daraxtlar asosan ko'ndalang va buylamasiga kesiladi. Kesishda butoq, yoriq, daraxt uzagi kabi turli xil nuqsonlar hisobga olinadi.
- 4- Temirchi: Metall so'zi grekcha erdan qazib olaman degan mazmunda bo'lib, u dastlab kon, qazilma, degan ma'nolarni anglatadi. Metallar o'zining texnik xususiyatlari: mustahkamligi, qattiqligi, egiluvchanligi, issiqlik va elektr o'tkazishi, suvga bardoshliligi, eruvchanligi va cho'kuvchanlik xususiyatlariga ega.

O'qituvchi o'quvchilarning Duradgorlik, Temirchilik kasb-hunari va ish materiallari haqida olgan bilimlarini takrorlash va mustahkamlash uchun tapog'onlik o'yinidan ya'ni krassvorddan foydalanadi.

Men, sizlarga bittadan asboblarni tasviri tushirilgan rasmni ko'rsataman. E'tibor qiling! Krassvord teng bo'laklarga ajratilib raqamlar bilan ifodalangan. Raqamlar siz topishingiz kerak bo'lgan so'zlarning birinchi harfi boshlanishini bildiradi. Hushyor bo'ling! Sizning qo'lingizdagi rasmda qaysi asbob tasviri tushirilgan bo'lsa shu kasbiga oid ma'lumotlar so'raladi. Topag'onlar kim topsa, ishora qiling aytishga va yozishga ruxsat olasiz, - deydi.

1-misol (1-rasm).

O'qituvchi bolg'a tasviri tushirilgan rasmni havola qiladi.

Bo'yiga:

1. Bolg'a qanday metallardan tayyorlanadi. (eniga)
2. Bolg'aning tuzilishi qanday shaklda. (bo'yiga)
3. Rangli metall turi. (bo'yiga)
4. Bolg'adan ko'proq qaysi kasb egalari foydalanishadi. (bo'yiga)

1P	2.U	L	3.A	4.T
	Z		L	E
	U		YU	M
	N		M	I
	CH		I	R
	O		N	CH
	Q		I	I
			Y	

2-misol. (2-rasm).

O'qituvchi bolg'a tasviri tushirilgan rasmni havola qiladi.

1. Qurilishda ko'p ishlatiladigan yog'och material (eniga)
1. Daraxt turi (bo'yiga)
2. Qishin-yozin bir xil kiyimda. (bo'yiga)
3. Yog'ochni bo'lishda ishlatiladigan asbob (bo'yiga)

1.T	2.A	X	T	3.A
E	R			R
R	CH			R
A	A			A
K				

Duradgorlik va Temirchilik kasb-hunarga oid mashg'ulotlarda roli sahnalashtirishlar orqali mavzuni jonli, ta'sirchan, puxta etkazish imkoniyati mavjud. Bunda oquvchilarda mazkur kasb-hunarlarga qiziqishini oshirish, kasb-hunar egalarini va mehnat natijalarini hurmat qilishga o'rganadilar.

Yakuniy qism

1.Dars yakunida guruhlarning ishtiroki, topqirligi, topshiriqlarni bajarishiga qarab izohli baholanadi.

2.Kasb-hunarlar haqida ibratli so'zlar, maqollar topib kelish uyga vazifa qilib beriladi.

1-soatlik dars ishlanmasi.

Mavzu: Mehnat bilan turmush farovon.

Darsning borishi: O'quvchilarda mehnatga muhabbat uyg'otish.

Mavzu bayoni: Inson o'z tirikchiligini faqat halol mehnat evaziga oshiradi. Mehnat bir umrga insonga hamroh. Mehnat qilmaydigan odamlar o'g'ri, yalqov, dangasadirilar.

Ma'lumki, odamlar ehtiyojani ta'minlash uchun dunyoda 50 mingdan ziyod kasb bor, hozirda ular yanada oshib bormoqda. Bu kasblarning barchasi odamlar ehtiyojani qondimoqqa xizmat qiladi. Har bir yosh avlod bolaligidanoq ana shu kasblardan bir yoka bir nechtasini egallab olib, o'rgangan kasblari orqali katta bo'lgach, o'z vatani, xalqiga xizmat qilishi kerak.

Tasavvur qiling: shaharda yashaysiz va ota-onangiz, aka-opalaringiz umuman, butun oila a'zolaringiz bilan hayotiy ehtiyojingizga ketadigan narsalarni bir ko'z oldingizga keltiring. Tuz, non, yog', guruch, go'sht, sabzi-piyoz, kartoshka... va hokazo oziq-ovqatlar. Kir yuvish mashinasi, tikuv mashinasi,

sovitgich, avtomobil va h.k. Buncha narsani siz va sizning oilangizdagilar o'zi ishlab chiqara oladimi? Albatta, yo`q. Bularni mamlakat fuqorolari turli mehnat jamoalarida ishlab chiqaradilar. Masalan, otangiz non zavodida, onangiz tikuvchilik fabrikasida, akingiz avtomobil zavodida ishlaydi. Demak, ular ishlab chiqargan mahsulotni boshqalar sotib oladilar. Shunday qilib, butun mamlakat xalqi o'z mehnatlari bilan bir-birlarining ehtiyoji hamda davlatning qudratini ta'minlaydilar.

Demak, xulosa shuki, har bir kishi qaysidir zavodda, fabrikada, dalada, fermer xo'jaligida, albatta, mehnat qilishi kerak. Agar mehnat qilmay o'z ehtiyoji uchun zarur narsalarni talab qilsa, bu muttahamlikka kiradi. Bu holda teinxo'r tekintomoq bo'lib qolish hech gap emas. Tayyoriga yugurib, o'zi mehnatdan qochgan odamning kelajagi yo`q. Shuning uchun kishilar bundaylarni yoqtirmaydilar, ulardan nafratlanadilar. Ular yashab turgan joyida, xalq orasida hurmatlari yo`q. Ularga "dangasa", "ishyoqmas" deb qaraydilar.

Shu tufayli, aziz bolajonlar, inson umrining eng quvnoq davri – bolalikni behuda o'tkazmay, foydali mehnat qilishga, ilm olishga sarflash kerak.

Bemaqsad o'yinlar faoliyatingizni susaytirib qo'yadi. Fikrlashingiz, tafakkuringiz yetarli rivojlanmay qoladi. Buning o'rniga ko'proq ilm egallang, badiiy asar va boshqa kitoblarni o'qing, bilim olish ham katta mehnat. U sizning kelgusida yuksak malakali mutaxassis bo'lib yetishishigizga imkon yaratadi.

Temirchi hunari.

Temirchi - temirdan pichoq, ketmon, bolg'a, bolta, o'roq va boshqa shunga o'xshash dala ishlari uchun asbob-uskunalarni va temir buyumlarni tayyorlaydi. Ular baquvvat, epchil, sabrli kishilardir. Ularning mehnati orqali juda ko'p temir buyumlar, ish qurollari yaratiladi va ishlatiladi.

Oddiy temirni olib,
 Uni shaklga solib,
 Temirchi yasar ketmon.
 Bu ish emasdir oson.
 Temirga berar ishlov,
 Bosgandan chikar olov.
 Cho'g'day qiziydi
 ketmon,
 Ishga tushadi sandon.
 Shu usulda, albatta,
 Yasalar tesha, bolta.



Darhaqiqat, el-yurt o'z kasbining mohir ustasi bo'lganlarni, qo'lida gulday hunari bor kishilarni "Usta" deb murojaat etib, e'zozlab, hurmat qiladilar. Odam bolasi mehnatdan baxt topishga intilsa, mehnati bilan boshqalarga nafi tegsa, ularni iqbol sharaflaydi.

Savollar:

1. Mehnat insoning risq-ro'zini topishning asosiy omili ekaniga misollar keltiring?
2. "Halol mehnat qil" deganda nimani tushinasiz?
3. Siz hali, bolasiz bu oltin davrda nima bilan shug'ullanmoq lozim?
4. "Mehnatdan kelguncha egasiga yetguncha" maqolining mazmunini so'zlang?

Mehnat haqida test savollariga javob toping.

1. "Mehnatdadir ko'p xikmat" nima?
 - a. maqol
 - b. sh'er
 - d. xadis
2. Xalqimizning xayrli va savobli ishlari.
 - a. bir kishining qilgan ishi
 - b. biror ishni ko'pchilik birgalashib, yordam berib bajarishi.
 - d. xalqning qilgan ishi.
3. Mehnat orqali nimalarga erishish mumkin?
 - a. baxtga, roxatga
 - b. charchoqqa, uyquga.
 - d. ilmga, damga.

4. Hozirgi zamonda qanday bo`lish kerak?
 - a. tadbirkor, ilimli.
 - b. rejali, aqilli.
 - d. tejamkor, tadbirkor, ilimli.
5. Bir ko`ngil vaqtimizni qanday o`tkazamiz?
 - a. shunchaki.
 - b. reja bilan
 - d. soatga qarab
6. "Vaqtning ketdi..." maqolining davomi qaysi qatorda berilgan?
 - a. "... umring ketdi"
 - b. "...kuning ketdi"
 - d. "...baxting ketdi"
7. Biror narsaga erishish uchun nima qilish kerak?
 - a. sabr bilan, mehnat qilish kerak.
 - b. dam olish kerak.
 - d. mehnat qilib, shoshish kerak.
8. Dangasalik qanday odan?
 - a. yaxshi.
 - b. yomon
 - d. bilmadim
9. Sizningcha mehnat qilmay ham biror hunarni egallash mumkimi.
 - a. ha
 - b. bilmayman
 - d. yo`q
10. "Kasb hunarning eng yaxshisi kishining o`z qo`li bilan bajaradigan halol ishi",- deb kim aytgan?
 - a. Imom Al - Buxoriy.
 - b. Muxammad payg`ambar.
 - d. Amir Temur.

Kichik maktab yoshidagi bolalarning harakatchanligi, faolligi, har bir ishga tayyorligi faoliyatining har xil turlarini turli shakl usullaridan foydalanishi taqozo etadi. Bu yoshdagi bolalar ko`pincha ishga berilib kirishadilar, bevosita mehnat faoliyatiga darrov qiziqib qoladilar.

Ammo ularning istagi, qiziqishi vaziyatga bog`liq, xatli-harakatlari esa beqaror bo`lib, kayfiyatlari tezda o`zgaradi. Bunday bolalar har doim har qanday ishga kirishaveradilar, ko`p tadbirlarda qatnashishga kirishadilar, lekin ana shu tirishqoqlik beqaror istakdan vujudga kelib, ko`pincha ularning istaklariga mos bo`lmaydi. Shuning uchun ular ko`pincha mashg`ulotdan darrov ko`ngillari sovib boshlagan ishlarini oshirishga yetkazmaydilar, bir ishni qoldirib boshqa ishga kirishib ketaveradilar. Bolaning idroki va undagi

istakning vaziyatga bog'liqligida yashirin ijobiy jihat mavjud. Uni ishga osongiga jalb etish, hech bir qiyinchiliksiz foydali ishga qiziqtirish va unda ijobiy jo'shqin kayfiyatni vujudga keltirish mumkin.

O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchining hatti-harakati ko'pincha ichki manbai bilan belgilanishini bilishi kerak. Bularning birinchi xili muayyan vaziyatlar taqozosiga ko'ra vujudga keladigan faoliyat katta harakat va kechinmalardan kelib chiqadigan motivlardir.

Bolaning ongiga boradigan yo'l uning kechinmalari, jo'shqin holati orqali o'tadi. Agar ish, mehnat majburiyatini bajarilish, quvonish, qoniqish bag'ishlasa, bular muvaffaqiyat bilan mustahkamlansa, bolada mehnatga va mashg'ulotga qiziqish, ilhomlanish degan hisini qayta-qayta takrorlash uchun ishga faol qatnashish istagi vujudga keladi. Shu tariqa uning faolligi, ishni yaxshiroq bajarishga intilishi namoyon bo'ladi. Ana shunda hissiyot tarbiyasi mehnatga muhabbat hissining tarbiyalashida boshlanadi. Bunda o'qituvchining vazifasi bolalarni har bir ishi va har mashg'ulotini qiziqarli, foydali va muvaffaqiyatli yo'lida tashkil qilishdan iborat.

Kichik maktab yoshdagi bolalarning taqlidchanligini hisobga olish lozim.

Ularning taqlid qilishga ehtiyoji axloqiy hatti-harakat tajribasini tezroq o'zlashtirish, mehnatga ongli munosabatda bo'lish sharoitini vujudga keltiradi. Kattalarning, ota-onalarning, o'quvchi va tarbiyachilarning, qarindoshlar va tanish-bilishlarning mehnatga halol munosabatlari juda qulay muhit bo'lib, ana shu muhitda bola shaxsning tarkib topishi ma'naviy qiyofasining shakllanishi, e'tiqodli va axloqiy odatlarning tarbiyalanishi rivojlanadi.

So'z bilan ishontirish. Bunda axborot vositalarining qo'llashi bolaning karakteri, mehnatga munosabati shakllanishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar sinfdan tashqari mashg'ulotlarda katta avlod erkin mehnat qilish huquqiga erishish uchun, baxtli hayot qurish uchun qanday kuch-g'ayrat sarflangannini qancha qurbonlar bo'ganini bilib oladilar.

Ana shu haqda mashhur va buyuk kishilar hayoti. Hamda faoliyati misolida, o'z mehnati bilan qudratli ekani, ilg'or fan texnika va madaniyatni yaratgan olimlar, uchuvchilar, hamda dehqonlarning ishlari misolida yorqin va ishonarli tarzda hikoya qilish o'qituvchining muhim vazifasidir.

O'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning kasb-korlik yo'nalishi sistemasini tuzishda o'qituvchi rioyaetishi lozim bo'lgan asosiy pedagogik sharoitlar quyidagilardan iborat:

Ta'lim-tarbiyaning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishi. Buning mohiyati shuki, o'quvchining kasb tanlashi muammosini hal qilish g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va jismoniy tarbiya, ilmiy dunyo qarashni shakllantirish vazifasiga muvofiq yo'sinda amalga oshirilishi lozim.

Kasbga yo'naltirishda nazariya bilan amaliyotning bog'lanishi.

Bunda o'smirlarga mamlakatda xalq ta'limining rivojlanishi, xalq xo'jaligining rivojlanishiga muvofiq holda o'zining kelajakdagi kasbini tanlashida yordam berish nazarda tutiladi.

Tushunarliklik va onglilik. Bular maktabda ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirishda bajariladi. Ularning odamga qo'yadigan psixofiziologik talablari bilan, kasblarni egallash yo'llari bilan, kasb mahorati o'sishi ta'minlanadi.

Ko'pincha o'qituvchilar dars mashg'ulotlarida maqol va matallarni taxlil qilib beradilar. Masalan "O'roqda yo'q, boshoqda yo'q-hirmonda hozir" maqoli o'zi mehnat qilmay, o'zgalar mehnati samarasidan foydalanishni yaxshi ko'radigan kishilar haqida ekanini, unda ishyoqmas, dangasa va tanballar qoralanganligini tushuntiradilar.

2.2. Tarbiyaviy tadbirlarda mehnatsevarlik hissin shakllantirish usullari.

O'quvchilarda mehnatsevarlik hissin shakllantirishga oid tajriba – sinov ishlari jarayonida quyidagi tadbirlar olib borildi.(1-soatlik dars ishlanmasi).

Mavzu: Mehrijon sayli.

Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarga Mehrjon sayli haqida tushuncha berish, dunyoqarashini o'stirish xalq maqollari haqida ma'lumot berish, mehnat qilishning ijobiy tomonlari bilan tanishtirish.

Darsning borishi:

I-tashkiliy qismi: Kirish suhbat .

II-uy vazifasini so'rash.

“Olma” hikoyasi o'quvchilarga o'qitilib qayta hikoyalatiladi, mavzu yuzasidan savol javob o'tkaziladi.

III-yangi mavzu bayoni.

1. Mehrjon sayli haqida suhbat o'quvchilar bilimini aniqlashtirish.
2. Mavzuni ifodali o'qish.
3. Lug'at ishi.
4. O'qituvchining tushuntirib borishi.
5. Maqollarning mazmunini ochib berish.
6. Og'zaki hikoya. Qo'shimcha yangi mehnat haqidagi maqolalarni aytish.

Kitobda berilgan.

Mehnat baxt keltirar.

Mehnating zebi-ziynating.

Mehnat qilgan xor bo'lmas.

Maqollarni hayotiy misollar yordamida tushuntirib, izohlab berish.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Mavzuni qismlarga bo'lib o'qish.
2. Maqollarni davom ettiring, o'yinni qatorlararo musobaqa tarzida o'tkaziladi.

3. O'quvchilarning og'zaki hikoyasi.

4. mehnat haqida erkin fikr bildirish.

V. Uyga yakunlovchi qism.

Bugun o'qish darsida nimalarni o'rgandingiz?

Qanday mavzu yuzasidan suhbatlashdik?

VI. Uyga vazifa berish.

Mehnat baxt keltirar sarlavhali hikoya yozib kelish, mavzuni o'qib o'rgatib savollarga javob topib kelish.

O'quvchilar qatnashishi hisobga olinib rag'batlantiradilar.

Sinfdan tashqari vaqtlarda kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, ularni nazariy bilimlarini hayotdagi tarbiyaviy faoliyati bilan to'ldiradi.

Dehqonchilik kasbi

Dehqonchilik bilan qadimdan ota-bobolarimiz shug'ullanib kelishgan. Dehqonlar yerga ishlov berib, urug' qadaydilar, urug'dan unib chiqqan yosh nihollarni parvarishlab dasturxonimizga ne'matlarni yetkazib beradilar.

Dalasiga olib yo'l,
Dehqon ko'zlar hosil mo'l.
O'z ishiga u usta,
Xirmon uyadi kuzda.



Sayohat-sinfdan tashqari vaqt o'quvchilarni tarbiyalash usullaridan biri hisoblanadi. Bunda o'qituvchi boshchiligida o'quvchilar qo'llari qadar dehqon dalasiga bog'bon bobo mehnatining samarasi bo'lgan bog'larga, korxona zavodlarga, xalq amaliy san'ati muzeylarga sayoxatga chiqadilar.

Shu bilan birgalikda o'qituvchi o'z nutqining ta'sirchanligini ta'minlash uchun mehnatsevarlik haqidagi xalq maqollaridan ko'rgan bilganlarini asosida o'qituvchi aytgan maqolning mazmunini tushuntirib berishni so'raydi. Xuddi shu singari amaliy san'at muzeylarida sayohatda bo'lganda o'qituvchi o'quvchilarga xalq hunarmandchiligidagi turli ko'rinishlari mehnatning orqasidan ishlab chiqilganligini tushuntiradi.

O'quvchilar muzeydan xalq tomonidan ishlangan kashtalar bezakli idish tovoq buyumlari, kiyim kechaklar va ayollar bezaklarining namunalari orqali mehnat qilishga o'rgatadi va mazmunini sayohat kechinmalaridan kelib chiqib ochib beradi.

Hunar-hunardan rizqing unar.

Mehnat qilgan –baxt topar.

Mehnat qilsang yasharsan,

Katta katta osharsan.

Yigit kishiga yetmish hunar oz

Hunar bo'lsa qo'lingda,

Non topilar yo'lingda.

Kabi maqollardan foydalanib bolaning shaxs sifatida shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Suhbat-mavzusiga oid rasmlar xalq og'zaki ijodi namunalaridan to'plab, mavzu yuzasidan savollar tuzib, kechaning taxminiy rejasini shaklida o'tkazish, turli kartochkalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Suhbat kechasida kartochkalarda yoki o'qituvchi o'z nutqida xalq maqollardan foydalanib o'quvchilar bilimini mustahkamlab beradi. Suhbat kechasining mavzusi muammoli vaziyat yaratish tarzida o'tkazilishi ham mumkin.

Masalan: Suhbat mavzusi "Mehnat insonga nima beradi?".

Reja:

1.Suhbatning o'tkazilishidan maqsad: O'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, mehnatni sevishga, qadrlashga o'rgatish.

2.Kechaning uslubi: Suhbat, savol javob.

3. O'tkazilish joyi: Anjumanlar saroyi.

Borishi:

1. "Mehnat insonga nima beradi"? mavzusi yuzasidan muammoli vaziyat yaratish. O'quvchilarning fikrini bilish.

2.Savollarga javoblar.

3. Klaster usulidan foydalanib, suhbatga xulosa chiqarish va mavzu yuzasidan umumlashtiruvchi suhbat o'tkazish.

Birinchi bosqichda o'quvchilar mavzu yuzasidan o'z fikrlarini bildiradi. Bunda dars jarayonida va mustaqil o'rgangan maqollar bilan o'z fikrlarini tasdiqlab beradi.

Misol uchun o'quvchi:

Mehnat insonga baxt amal keltiradi. Chunki u orqali rizq nasibasini halol topadi. Halol mehnat orqasidan topilgan boylik tufayli albatta kishilar baxtli yashaydilar. Xalqimizda shunday maqol bor:

Mehnat –baxt keltirar.

Xuddi shu singari boshqa o'quvchilar mehnatning turli ijobiy tomonlarini aytadilar. Suhbat jonli chiqishi uchun o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlangan savollar berib boriladi.


Savollar:

1.Ish ishtaha ochar, dangasa ishdan qochar, maqolining ma'nosini tushuntiring.

2. Siz ota-onangizga uy ishlarida yordam berasizmi?

3.Maqolni davomini ayting, ma'nosini tushuntiring.

"Suvsiz hayot bo'lmas,... kabi savollar beriladi. Shundan so'ng o'quvchilar bilimlarini mustahkamlash, umumlashtirish maqsadida klaster usulidan foydalaniladi.



Bu sxema plakatda chizilib tayyor turadi. Faqat o'quvchilar gul barglariga birin-ketin yozadilar, o'qituvchi umumlashtirib mustahkamlaydi.

Mehnat tarbiyasiga oid quyidagi maqollardan namunalar keltiramiz.

Mashaqqatsiz baxt kelmas,
Mehnatsiz baxt kelmas.

Mehnat baxt keltirar.

Mehnat bilan yer ko'karar,

Duo bilan – el
Mehnat va o'qish og'a-ini.

Mehnat yerda qolmas,
Oltin –yo'lda.

Mehnat kishini boqar,
Yalqovlik o'tga yoqar.

Mehnat, mehnatning tagi-rohat

Mehnat-rohatning poydevori.

Mehnat tovoq to'ldirar,
Minnat tog' kuydirar

Mehnat shuhrat keltirar,
Yalqovlik – la'nat.

Mehnat etsang erinmay,
To'yar qorning tilanmay.

Mehnat –e'tibor qarovi.

Mehnat qancha og'ir bo'lsa,
Keti shuncha shirin bo'lar.

Mehnat qilgan moy oshar.

Mehnat qiling, ko'p qilding,
Minnat qilding, yo'q qilding.

Mehnat qilib topganing,
Qandu asal totganing.

Mehnat qilmay rohat ko'rmas,
Urug' sepmay ekin o'rmas.

Mehnat qilsang, ko'ksing tog'.
Hurmat qilsang, diling bog'.

Mehnat qilsang, yasharsan,
Katta-katta osharsan.

Mehnat qilsang, qaram bo'lmayсан.

Mehnat qilsang qirga,
Qaram bo'lmassan qo'lga.

Mehnat ham egiz-egiz,
Davlat ham egiz-egiz.

Mehnatda sinalgan – elda aziz.
Mehnatli non-shakar,
Mehnatsiz non-zahar.

Mehnatli osh – osh bo'lur,
Mehnatsiz osh – tosh.
Mehnatning ko'zini topgan,
Boylarning o'zini topar.

Mehnatning noni tozali,
O'g'lining umri –azali.

Mehnatning nomi shirin,
Yalqovning joni shirin.

Mehnatsiz bilak-o'rinsiz tilak.
Mehnatsiz ish bitmas,
Erinchoqning qo'li yetmas.

Mehnatsiz rohat bo'lmas,
Savodsiz – jannat.

Mehnatsiz topilgan mol,
Hisobsiz ketar.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllanishda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda maqsadga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya muhim o'rin tutadi. O'quvchining o'zini-o'zi boshqarishga qaratilgan faoliyati ham muhim omillardan ekanligini esdan chiqarmaslik lozim. Faoliyat deganda o'quvchi shug'illanadigan turli mashg'ulotlar tushuniladi. O'quvchining bir butun har tomonlama rivojlanishi, borliqqa bo'lgan munosabati uning faoliyati jarayonida tarkib topadi. O'quvchi faoliyatining asosiy turi o'qish bo'lib, unda kasb-hunarning rivojlanishi ushbu faoliyat turining to'g'ri tashkil etilishi va maqsadga muvofiq yo'naltirilishiga bog'liq.

Psixologiyada 7-10 yoshdagi maktab o'quvchilarining yoshlari kech yoki erta ulg'ayish tarzida ifodalanadi. Bunda muayyan, aniq terminning yo'qligining o'zi yoshlarning psixologik harakteristikasining murakkabligi va bir xil emasligidan dalolat beradi. qoida bo'yicha aynan shu yoshda o'quvchilar jismoniy, psixologik va oliy psixik funktsiyalar: qabul qilish, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, his-hayajonlarda o'z rivojlanishining yuqori pog'onasiga ko'tariladi .

Ayniqsa, xalq maqollari yordamida o'qish davrida o'quvchilarda faoliyatlarning rivojlanishi, turli sohalarga qiziqishi kuchayishi shuningdek, ularning hayajon doirasi tez rivojlanishi aniqlagan.

Kichik yoshdagi o'quvchilarning yana bir muhim xususiyati shaxsning o'z individualligi, betakrorligini anglashi, o'zini anglash «men»ning shakllantirilishidadir. I.Kon. fikri bo'yicha bu o'zaro bog'liq uch komponentni o'z ichiga oluvchi bilim, his-tuyg'u va xulq-atvor komponentlari bo'lib, shaxsning o'ziga munosabatini anglatadigan ijtimoiy ko'rsatmadir .

Shuni aytish kerakki, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ushbu ko'rsatmalar o'quv jarayoniga tatbiq etishning sifat bosqichi jadal va samarali sur'atda amalga oshirilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim darslariga joriy qilinayapti. Shuningdek, boshlang'ich ta'lim darslarini tashkil qilish va uni o'tkazishda katta yutuqlar qo'lga kiritilayotir. Shu jumladan, xalq maqollari yordamida darslarini ham DTS talablari asosida olib borishga erishilmoqda. Chunki, xalq maqollari yordamida darsliklari yildan-yilga takomillashtirilib, yangilanib, jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ta'lim andozalariga tenglashtirilib, zamonaviylashtirib borilmoqda.

Ma'lumki, DTS va uning tarkibiy qismlari «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda ta'limni takomillashtirish to'g'risidagi boshqa hujjatlar dars va darsdan, sinfdan tashqari ishlarda, tadbirlarda qo'llashning mohiyati va tamoyillarini belgilab beradi.

Keyingi paytlarda DTSni hayotga joriy qilishning ma'lum darajadagi amaliy javobi sifatida yangidan bir qadam qo'yildi. Shu jihatdan ham DTSlarining talablari asosida xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojlanish darajasi;
- jamiyat qadriyatlarini o'zlashtirish va uni boyitishga qaratilgan ta'lim tizimi va sinfdan tashqarida tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar, to'garak va klublar;
- madaniy-tarixiy, diniy an'ana, rasm-rusumlari, ommaviy axborot vositalari.

- shaxsning jismoniy va psixologik funktsiyalarining rivojlanganligi yoki uning ijtimoiy rivojlanish holati;
- o'quvchi faoliyat yuritadigan, uni o'rab turgan muhit, o'qituvchi va o'z tengdoshlarining madaniy rivojlanish darajasi talabaning jamiyatda, atrofida ro'y berayotgan voqea hodisalarga ongli munosabati;
- maktab va jamiyat hayotidagi tadbirlardagi faollik darajasi;
- maktab hayotida va atrof muhitda ro'y berayotgan salbiy hodisalarga munosabati;
- o'quvchi o'qiyotgan va faoliyat yuritayotgan psixologik muhit;

o'quvchining erkin muloqot doirasi (uy, ko'cha, turlicha dam olish shakllari); .

Xalq maqollari yordamida o'qituvchisining bolalar bilan maxsus ish olib borishi natijasida, ular o'z sinfdoshlarining muvaffaqiyatlariga, yutuq va kamchiliklariga do'stona qiziqish bilan qaray boshlaydilar, o'quv faoliyatiga butun sinfning ishi deb qaraydigan bo'lib qoladilar, bolalar sinf haqidagi fikrni chin ko'ngildan anglay boshlaydilar va ularning shaxsiy muvaffaqiyatlariga umumiy muvaffaqiyatning bir qismi deb qaray boshlaydilar. Ana shu tarzda jamoada do'stlik, o'rtoqlik yuzaga kela boshlaydi. Bolalarning ijtimoiy ishlarni jamoa bo'lib amalga oshirishda ishtirok etishlari ularning bir-birlariga bo'lgan ishonchni shakllantiradi. Aynan mana shunday ishlarda bola jamoa orasida amalga oshiriladigan ijtimoiy faoliyatning asosiy tajribasini egallab oladi.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarining kasb-hunar fazilatlarini kamol topishida birgalashib, jamoa bo'lib o'ynaydigan bolalar o'yinlari ham katta rol o'ynaydi. Chunki bolalar o'yini faqat iroda, batartiblik, hozirjavoblik va tashabbuskorlikni tarbiyalash bilan birga o'rtoqliq, ahillik hissini va o'z hatti - harakatlarida jamoa manfaatlarini ko'zlab ish ko'rish fazilatlarini ham tarbiyalaydi.

Shuningdek, xalq maqollari yordamida o'quvchilarida kasb-hunarni shakllantirishda mehnatning ahamiyati kattadir. Bolalar o'z - o'ziga xizmat qilish, o'qiyotgan joylarini belgilash uchun bo'ladigan xatchup, qutichalar, sanash materiallari, daftar jildlari kabi o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda bir - biriga yordam berish fazilatini

tarbiyalashga katta e'tibor berish kerak. Chunonchi, sinf xonasini tozalash, maktab tomorqasida ishlash, sport maydonchasini supurish, o'zlaridan kichik o'quvchilar uchun foydali narsalar tayyorlash va boshqalar bu yoshdagi o'quvchilarning bajarish uchun qurbilari, kuchlari etadigan ijtimoiy - foydali ishlardir. Zotan ularning mehnat faoliyatlarida kasb-hunar xususiyatlari namoyon bo'ladi. U o'zi uchun bo'lgan narsani qunt bilan berilib tayyorlaydi. Boshqalar uchun ishlash tajribasi hali ularda shakllanmagan bo'ladi.

Umuman, kichik yoshdagi bolalar o'z mehnatlari bilan tevarak - atrofdagi boshqa odamlarga foyda keltirishlarini sekin - asta anglay boshlaydi. Bu esa bolalarda g'ururlanish, shodlanish va o'z ishidan mamnun bulish tuyg'ularini shakllantiradi. Aslida, aynan mana shu tuyg'ularni kichik yoshdagi o'quvchilarda mustahkamlanib borish kerak.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarning ongida kasb-hunar shakllanishi ustoz - o'qituvchining roli beqiyos. Agar ustoz shaxsiy ibrat ko'rsatsagina tarbiyada yaxshi natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Tarbiya zahirida shaxs hissiyoti yotadi. Shuning uchun har qanday kasb-hunar xususiyatining shakllanishi ana shu shaxs hissiyoti bilan bog'liq hodisadir. Shaxsni shakllantirish va uning kasb-hunar sifatlarini o'stirib borish psixologiya fanining asosiy masalalardan biridir. Kasb-hunar, vatanparvarlik, hamkorlik, do'stlik, kasb-hunar, halollik va poklik kabi olijanob xislatlarni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda kasb-hunar tushunchasini bir butun holda o'zlashtirishlari uchun o'qituvchi har bir darsni ularning yoshiga xos tarzda o'tkazishi maqsadga muvofiqdir. Darsning maqsadi o'qituvchining o'quvchilar bilan birgalikdagi ta'lim - tarbiyaviy ishlari natijasini ifodalaydi.

Shuning uchun o'qituvchi ta'limiy maqsadlar bilan bir qatorda mavzuga muvofiq holda kasb-hunarni shakllantirishga ham ahamiyat berishi lozim. Darslarda o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishda xalq maqollari yordamidalar uchun tuzilgan «o'qish kitobi» darsliklaridagi materiallarning kasb-hunarni shakllantirish imkoniyatlari bilan bir qatorda foydalaniladigan ko'rgazmali qurollar alohida o'rin tutadi. Tahlil qilinadigan asarlar mustaqil o'zbekistonning tinchlik

siyosati, kishilarimizning qahramonona mehnati, yoshlarimizning quvnoq hayotini aks ettirishga qaratilgan bo'lsa, o'quvchilar qiziqishini orttirish bilan birga, ularda vatanparvarlik, kasb-hunar kabi bilimlarni shakllantiradi. Demak, o'quvchilar o'qish darslarida bolalar shoirlarining asarlarini o'rganish bilan bir qatorda kasb-hunar yo'nalishidagi tarbiyaviy saboq ham oladilar.

2.2.O'quvchilarni mehnat tarbiyasida kasb-hunarga qiziqtirishda maktabdan tashqari ishlarning usullari.

Mehnat ta'limi o'qituvchisi o'quvchilarni maktab fan, texnika va ishlab chiqarish xaftaligini, mamlakatimiz fani va texnikasi taraqqiyotidagi tarixiy kunlarga bag'ishlangan maktab kechalarini tayyorlash va o'tkazishga jalb qiladi. Demak, taqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki o'quvchilarni maktabdan tashqari vaqtlarida kasb-hunarga yo'llash ishlarini uyushtirishda mehnat o'qituvchisi asosiy bo'g'in xisoblanadi. Albatta, u o'z faoliyatini dastlab ta'lim standartlari asosida olib borishi talab etiladi. Zero, mehnat ta'limining vazifalari Davlat ta'lim standartlari (DTS) va o'quv dasturida ifodalangan. Ushbu xujjatlarda maktabdagi mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi izchil ta'riflanib, uning mehnatga muxabbat va mehnat axliga xurmat tuyg'usini singdirishdan, o'quvchilarni Hozirgi zamon sanoati va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish soxalari asoslari bilan tanishtirishdan, o'qish va foydali ish jarayonida ularda mehnat ko'nikmalari va maxoratini xosil qilishdan, ongli ravishda kasb tanlashga va boshlang'ich xunar ta'limini olishga undashdan iboratligi ta'kidlangan.

Yosh tabiatshunoslar va yosh texniklar bilan maktabdan tashqari tadbirlar tashkil qilishning asosiy maqsadi ana shu vazifalarni to'la-to'kis va har tomonlama amalga oshirishda yordam berishdan iboratdir.

Maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligini rivojlantirish uchun mehnat ta'lim va tarbiyasining umumiy vazifalari yanada aniqlashuvi ularni quyidagi uchta guruxga birlashtirishni taqazo etadi.

Umumta'limiy vazifalar:

* o'quvchilarda xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi ishchilar, texniklar, muxandislar mehnat faoliyatining mazmuni xaqidagi, asbob-uskunalar (mexanizmlar va mashinalar), texnologik jarayonlar xamda ishlab chiqarishning tashkil etilishi xaqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirish xamda chuqurlashtirish;

* o'quvchilarni texnikadagi ilg'or texnologik g'oyalar evolyutsiyasining yo'llari bilan, Hozirgi zamon ishlab chiqarishida fan-texnika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari bilan tanishtirish;

* o'quvchilarni mamlakatimizda yoshlarning ommaviy ilmiy va texnik ijodkorligining tashkil etilish shakllari bilan tanishtirish, texnika madaniyati malakalarini tarkib toptirish va takomillashtirish, ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ishlash qoidalarini, o'quvchini qiziqtirgan fan, texnika va ishlab chiqarish, texnologik masalalar bo'yicha zarur ilmiy-texnik axborotlar olish yo'llarini tushuntirish;

* Hozirgi zamon ishlab chiqarishida ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarini tashkil etish asoslari bilan tanishtirish;

* o'quvchilarni mazkur mintaqadagi xunar-ta'lim tizimi bilan, tumandagi ishchi kasbining qiziqarli jixatlari bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy vazifalar:

* o'quvchilarda bilishga intilishni, texnik xavaskorlikni va mazkur mintaqadagi texnika xamda ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlariga barqaror qiziqishni tarbiyalash;

* o'quvchilarda xayotda mehnatga, o'qishga, mustaqil bilim olishga, birga yashaydigan kishilarga, o'rtoqlarga munosabatda, maxalliy ishlab chiqarishdagi eng xurmatli mutaxassislarga taqlid qilish ishtiyoqini tarbiyalash va rivojlantirish;

* kishilar mehnati natijalariga ongli munosabatni; isrofgarchilikka murosasizlikni, tabiatga tejamli munosabatni tarbiyalash, iqtisodiy va ekologik tarbiya;

* mehnatga ijodiy munosabatni, maxalliy ishlab chiqarishdagi ilg'orlarning mehnat usullariga, maxalliy korxonalardagi ratsionalizatorlik va ixtirochilik ishlarining mavzular rejalariga, mazkur mintaq uchun yetakchi tarmoqlarda band bo'lgan kasblarga barqaror qiziqishni tarbiyalash; aniq ish o'rnida ishlashga ongli extiyojni oshirish;

* maxalliy korxonalar tarixiga, ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashinalar va mexanizmlarning tarixiga, maxalliy ishlab chiqarishdagi kasblar tarixiga, mehnat faxriylariga xurmatni kuchaytirish.

Amaliy vazifalar:

* turli asboblardan, moslamalar, jixozlar va mashinalar bilan ishlashda mehnat maxoratini rivojlantirish va takomillashtirish;

* aniq ish o'rnida mehnat unumdorligini oshirish imkoniyati mavjud bo'lgan texnik, ishlab chiqarish muammolarini topish va ularni xal etish ko'nikmasini tarkib toptirish va rivojlantirish;

Mana shu barcha pedagogik vazifalarni xal qilishda yosh tabiatshunoslar va yosh texniklar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishning umumiy tamoyillari asosida yo'lga qo'yilishi kerak. SHu bilan birga o'quvchilarning maktabdan tashqari vaqtlardagi texnik ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligini tashkil etish yana qator o'ziga xos xususiyatlarni xisobga olishni taqozo qiladi.

Ana shu xususiyatlarning biri maktabdan tashqari tadbir barchasi maktabdagi ta'lim-tarbiyaning umumiy vazifalariga bo'ysunishi yuqorida aytilgan edi. Ularning boshqa bir xususiyati shuki, o'quvchilar ko'pincha ancha kuch va vaqtni talab qiladigan texnik ijodkorlik yoki qishloq xo'jalik tajribachiligida fan, texnika, ishlab chiqarishning biror tarmog'iga qiziqishlari tufayli vujudga kelgan o'z xoxishlari bilan qatnashadilar. Shunga ko'ra, yuqoridagi olingan Bitiruv malakaviy natijalaridan kelib chiqib ixtiyoriy tashabbus o'quvchilarni maktabdan tashqari tadbirlarda kasb-hunarga yo'naltirishning eng muxim talablaridan biri deb xisoblaymiz.

O'quvchilar har qanday ish bilan qiziqib va berilib shug'ullansalar, g'oyat faollik va mustaqillik ko'rsata oladilar. Ana shu sifatlarni rivojlantirish bolalarda ijodiy tashabbuskorlikni tarbiyalashning zarur shartidir. Shuning uchun texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligini kengaytirishda o'quvchilarning mustaqilligiga, faolligiga, tashabbuskorligiga, jamoat tashkilotlariga tayanish yosh texniklar va tabiatshunoslar bilan amalga oshiriladigan tadbirlarng eng muxim xususiyati xisoblanadi.

Nixoyat, o'quvchilarning maktabdagi maktabdan tashqari xamda maktabdan tashqari muassasalardagi tadbirlarda o'z imkoniyatlari doirasidagi vazifalar bilan shug'ullanishi, yosh tashabbuskorlar ijodiy faoliyatining tavsifi ularning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi juda muximdir.

O'quvchilarning qishloq xo'jalik mehnati ta'limda nazariya va amaliyot birligi mezonini amalga oshirishning muxim shakllaridan biri, ularning ta'lim yo'nalishining asosiy tushunchalarini nazariy va amaliy jixatdan baravar o'zlashtirishining samarali vositasi, deyish mumkin. Bu jarayonda amalga oshiriladigan qishloq xo'jalik tajribachiligi tajribakor qo'ygan savolning maqsadga muvofiq javobini izlashdan iborat bo'lib, bunda murakkabligi, davomiyligi va axamiyati har xil bo'lgan qator vazifalar xal qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish mazmunining an'anaviy tuzilishi 1999 yilgacha quyidagicha bo'lgan:

1. ***Texnik mehnat*** - yog'och va metallarga ishlov berish, elektrotexnika asoslari, modellashtirish, qog'oz va kartondan turli shakllar yasash.
2. ***Qishloq xo'jaligi mehnati*** - o'simlik va chorvachilik asoslari, qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash, agronomiya asoslari, tuproqqa ishlov berish, tuproqshunoslik, qishloq xo'jaligi texnikasi.
3. ***Maishiy xizmat ko'rsatish mehnati*** - bichish, tikish asoslari, tikish mashinasi, uy ro'zg'or asoslari, pazandachilik asoslari oziq-ovqat maxsulotlariga ishlov berish.

Bugungi kunda, ta'lim-tarbiya muassasalarida o'qitilayotgan mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishda an'anaviy tartibdagi o'quv tadbirlari, maktabdan tashqari

tadbirlar sifati, mazmuni, tizimi mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va mustaqil taraqqiyot talablariga javob bera olmay qoldi.

Kuzatish va taxlillarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi an'anaviy tizimdagi kasbga yo'naltirish ishlari jarayonida maktabdan tashqari tadbirlar zamonaviy ta'lim, metodlari, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari talablari asosida tashkil etilmagan. Tadbirlarni o'tkazish uchun metodik qo'llanmalar yetishmaydi va mavjudlari xam Hozirgi zamon talablariga javob bermaydi.

Kasbga yo'naltirish ishlarini respublikamiz ta'lim isloxotlari talabi darajasida yo'lga qo'yish, respublikamiz va rivojlangan xorijiy davlatlarda bu borada to'plangan ilg'or tajribalarni tadqiq qilib, ijodiy tatbiq qilish davr taqozosi xisoblanadi.

Tadqiqot ishimizni olib borishda Toshkent shahar Yakkasaroy tuman 135-o'rta maktablarda maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil qilishda kasbga yo'naltirish tadbirlarining quyidagi shakllari mavjudligini kuzatdik.

- maktabdan tashqari ishlar:

- a) turli soxalar bo'yicha tashkil etiladigan to'garaklar;
- b) o'quv ustaxonasidagi amaliy ishlab chiqarish tadbirlari;
- v) ishlab chiqarish sayoxatlari;
- g) maktab o'quv-tajriba yer maydonida ishlash;
- d) jonli burchak tashkil etish xamda issiqxonalardagi faoliyat;
- e) tashkil etiladigan xashar va shanbaliklarda ishtirok etish;
- yo) sinfda, sinflararo, maktablararo, tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'rik musobaqalarda ishtirok etish;
- j) turli ommaviy tadbirlarda qatnashish kabilar.

- maktabdan tashqari ishlar:

- a) guruxli va ijara pudratida ishlash;
- b) qo'shma, xususiy va davlat korxonalari faoliyatida ishtirok etish;
- v) oilaviy mehnat, kasb-hunar, xunarmandchilik;
- g) ishlab chiqarish sayoxatlarini tashkil etish;

- d) mavsumiy ishlarda ishtirok etish;
- e) homiy va otaliq korxonalari bilan shartnomalar asosida buyurtmalarni bajarish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'llashga asoslangan maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil qilishda o'quvchilarning yosh, ruxiy, individual xususiyatlarini xisobga olgan xolda, ularni mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirishda o'simliklarni parvarish qilish, xunarmandchilik jixoz (material) lari bilan tanishtirish va ishlov berishda mehnat ko'nikma va malakalari shakllantirilib borildi. Shu bilan birga, ularning qiziqishi va moyilliklariga ko'ra o'zini o'zi kasbiy jixatdan aniqlash, kasb-hunar turlarini tanlashi, xunarmandchilik soxalari va ularda ishlatiladigan asbob-uskuna, yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni o'rganib borishlari xamda mehnat faoliyatida ishtirok etishlari ta'minlandi.

Tadqiqot ishining shakllantiruvchi bosqichida maktabdan tashqari tadbirlarda kasb-hunarga yo'llash ishlarining ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuv, suxbat, baxs, sayoxat, ko'rik, musobaqa, mehnat amaliyoti, o'quvchilar mehnat uyushmasi kabi shakllarining mazmuni va tuzilmasi qayta ko'rib chiqildi xamda zamon ruxiga moslashtirildi.

Maktabdan tashqari tadbirlar shakllarini samarali ravishda amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lim maktablari, oila, mahalla-jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq xunarmandlari, ustalarining ish tajribalari o'quv jarayonida foydali mehnat maxsulotlarini tayyorlab, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishi va moddiy jixatdan kafolatlanishiga yordam beruvchi omillardan biri xisoblanadi.

Maktabdan tashqari tadbirlar shakllarini tashkil etish, jumladan, to'garaklar, ko'rik, musobaqa, munozarali baxs, uchrashuv, har xil turdagi o'yin, ko'rgazmali chiqish, sayoxat va shu kabilardan foydalanish ta'limni samarali amalga oshirishning muxim shakllaridan xisoblanadi. Maktabdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning fanlardan o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaxkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va bu ta'surotlar ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi xamda badiiy-estetik didini oshirishda muxim omil bo'lib

xizmat qiladi. O'z vaqtida rejali, tartibli o'tkazilgan tadbirlar o'quvchilarning har bir tadbirlarga bo'lgan qiziqish va xavaslarini yanada oshiradi, ma'naviy, mafkuraviy tasavvurlarini boyitadi.

Mehnat ta'limi va kasbga yo'naltirish bo'yicha o'tkaziladigan maktabdan tashqari tadbirlar shakllari yetarlicha o'rganilgan. Biroq, bu tadbir mazmunini o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash texnologiyasi bilan boyitish muammosi yetarli darajada xal etilmagan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida maktabdan tashqari tadbirlarni samarali tashkil etish uchun barcha sharoitlar mavjud bo'lsa-da, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llash ishlarida bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. Bizning fikrimizcha, bu kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil etishga har tomonlama tayyor, malakali mutaxassis-pedagog kadrlar, ya'ni mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limi o'qituvchilarining yetishmasligi;

- maktabdan tashqari tadbirlarni tashkil etish uchun zaruriy metodik qo'llanmalar, texnik, texnologik xujjatlarning kamchiligi;

- maktab bilan ota-onalar kengashi va mahalla, jamoatchilik o'rtasida mustaxkam aloqaning yo'lga qo'yilmaganligi;

- otaliq tashkilotlari ma'muriyatining o'quvchilar mehnat amaliyotini tashkil etishga oid maxsus xujjatlar, ma'lumotlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

- korxona ma'muriyati tomonidan amaliyotchilarga zaruriy tsex, ish o'rni va kiyimlar, kerakli asbob-uskuna, jixoz, texnika xavfsizligi uchun muxofaza vositalari va shu kabilar ajratilmaganligi.

Maktabdan tashqari tadbir mazmuni, vazifasi, dasturi, o'tish muddati va shu kabilar umumiy ota-onalar yig'ilishining kun tartibiga qo'yib borilsa, bu tarbiyaviy tadbirni tashkil etishda yuzaga keladigan ba'zi tushunmovchilik, to'sqinlik va kamchiliklarning oldi olingan bo'lar edi

Umumiy ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalarning (bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari) maktabdan

tashqari ishlarda o'quvchilarning texnik ijodkorligi xamda qishloq xo'jalik tajribachiligini rivojlantirish faoliyati o'zining shakli, mazmuniga ko'ra xilma-xildir. Shunday bo'lsa xam keyingi o'n yillar ichida ana shu faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari aniqlandi:

1. Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar) o'quvchilarida texnik ijodkorlik yoki qishloq xo'jalik tajribachiligi bilan bog'liq mehnatga qiziqish va jamoa mehnatiga ishtiyoq uyg'otish, ana shu yoshlar guruxidagi o'quvchilarni yasama texnik o'yinchoqlar, modellar va turli jixozlarni konstruksiyalash bilan bog'liq faol texnik o'yinlar, musobaqalar va konkurslarga qatnashtirish, tabiatni muxofaza qilish faoliyatiga va tajribachilik ishining eng oddiy shakllariga jalb etish, bolalarda texnika, sanoat va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi soxalaridagi texnik xavaskorlik, ijodkorlik va tajribachilikka intilishni tarbiyalash.

Yosh texniklar va tabiatshunoslar bilan olib boriladigan maktabdan tashqari tadbirlarng bu yo'nalishi asosan tayyorlov (propedevtik) tavsifda bo'ladi. Ular oddiy mehnat malakalarini egallab, texnik va ishlab chiqarish bo'yicha har xil ma'lumotlarni bilib olib, o'zlari ijtimoiy foydali mehnatda faol qatnashishlari zarurligini va keyinchalik o'zlari uchun mehnat faoliyati soxasini va kasb-hunarni tanlash extiyojini anglay boshlaydilar.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining (V-IX sinflar) o'quvchilarida tabiatshunoslikka, texnikaga va ishlab chiqarishga chuqur qiziqishni tarkib toptirish va rivojlantirish, ularning bilish faolligini, yosh fiziklar, ximiklar, matematiklarning olimpiadalarida qatnashuvini rag'batlantirish, ularni maktabdagi predmet to'garaklariga, tajribachilik va Bitiruv malakaviy chilik ishlariga, maktab asbob-anjomlarini, ko'rsatmali qo'llanmalarni, ta'limning texnik vositalarini takomil-lashtirish bilan bog'liq konstruktorlik faoliyatiga jalb etish.

Umuman, bu ish darslarda bilimlarni o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, ularning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi, bolalarda texnik qobiliyatlarni rivojlantiradi.

3. O'quvchilarni maktablar va maktabdan tashqari muassasalardagi texnik ijodkorlik va qishloq xo'jalik tajribachiligi jarayonida ommaviy ishchi kasblariga

yo'naltirish, ularni o'quvchilar mehnat birlashmalari uchun kichik mehnat vositalarini yaratishga jalb etish, baza korxonalar topshiriqlari bo'yicha ixtirochilik ishlariga qatnashtirish.

O'quvchilar ishlab chiqarish texnika to'garaklari ishida qatna-shadilar, maktablar va maktabdan tashqari muassasalar (bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari) bazasida, o'quv-ishlab chiqarish markazlarida ishlab chiqarish buyurtmalarni sifatli bajarishga yordam beradigan har xil texnologik asbob-uskunalarni ishlab chiqadilar va tayyorlaydilar: ijtimoiy foydali, umumli mehnatda faol qatnashadilar, ixtirochilarga aylanadilar, ommaviy ishchi kasblarining ijodiy imkoniyatlari va boshqa qiziqarli tomonlari bilan keng tanishadilar.

Maktabdan tashqari tadbirlarda kasbiy tarbiyaning asosiy va-zifasi shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy ri-vojlaniishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, xayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi xissini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy xamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka xosil qildirish, tobora o'stirib, boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

- har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli soxalarida joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit xozirlash;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunadigan, mexribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitish-larga toqatsizlik), muomala

odobi kabi kasbiy tarbiya vositalari (noxaqlikka, yolg'onchilikka, tuxmat, chaqimchilik) ga toqatsizlik;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga sodiqlik, uning ximoyasi uchun xamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga xurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madxiyasiga, Prezidentiga sadoqat ruxida tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga xurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat xislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya;

- mustaqil davlatimiz O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baxo berish, uning tinchliksevarlik, oshkoralik va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy ximoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirish;

- turmushda eng oliy qadriyat xisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila soxibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish zarur.

Maktabdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xoxish va extiyojlariga suyangan xolda, ularning maktabdan bo'sh vaqtlarining o'quv tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Maktabdan tashqari tadbirlarng o'ziga xosligi shundaki, to'garak dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Hozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan kasbiy-tarbiyaviy tadbirlar o'smirlar orasida kuchaytirish talab etiladi. Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari (o'qituvchilar, sinf raxbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida doimo o'quvchilarni kasbga yo'naltirish asosida xayotga tayyorlashdek muxim vazifa turadi.

O'quvchilarda kasbiy tarbiyani shakllantirishda kitob va kitobxonlik muxim ahamiyat kasb etadi. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevisht, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim. O'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustozu murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

Kasbiy tarbiyani amalga oshirishda ta'lim muassasalarida umuminsoniy qadriyatlar doimo diqqat markazida bo'lishi va uni amalga oshirish uchun shaxs erkinligi va oshkoralikni ximoyalash har bir kishining asosiy vazifasidir. Kundalik tarbiyaviy tadbirlar shunday tashkil etish zarurki, natijada o'quvchilar Respublika mustaqilligi sharoitida uning muammolarini o'zinikidek qabul qiladigan bo'lsin. Ularning og'irligini o'z yelkasiga oladigan, mumkin qadar Vatanga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'aysin. Bugungi kunda olib borilayotgan, ko'zda tutilgan barcha yangilanish jarayonlari, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy soxalardagi tub o'zgarishlar xammaning fidokorona xizmati tufayligina yuzaga kelishini tushunsin.

Iqtisodiy tarbiyaning umumiy maqsadi jamiyat taraqqiyotini belgilovchi ijodkor shaxsni xayotiy faoliyat vositasidan unumli foydalangan xolda uning iqtisodiy savodxonligini, iqtisodiy mada-niyatlilik darajasini oshirishdan iborat.

Shunga muvofiq shaxsning kamol topishi faoliyati vositasida aniq iqtisodga bog'liq nazariy bilimlar tizimini, shuningdek, iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi, o'rganuvchining iqtisodiy ongiga bevosita ta'sir etishga imkon beruvchi bosqichlarni amalga oshirishdir. Maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari bolalarning eng oddiy, shuningdek, ancha asosli iqtisodiy bilimlar, xayot me'yorlari va qoidalarini bilib olishlari, tushunchalarni kengaytirishlari xamda mustaxkamlashlari uchun ularga keng sharoit yaratib

berishlarini taqozo etadi. Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'lim tarbiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqarishda mamlakatimizdagi barcha davlat boshqaruv tashkilotlari qatnashishi ko'zda tutiladi.

Hozirgi kun talablariga javob berish barobarida uzluksiz ta'limning yagona tizimi, umumta'lim tayyorgarligining uzluksiz ta'limdagi ahamiyati, shaxs barkamolligi, mustaqil ijodiy faoliyat ko'rsata olishda uzluksiz ta'lim, turli faoliyatlardan vosita sifatida foydalanish, iqtisodiy munosabatlarga jalb etish kabi ilmiy qarashlar tizimi shakllanadi.

Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishni vaqt bilan qat'iy chegaralash mumkin emas. Uning uzluksizligini ta'minlovchi, iqtisodga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tadbirlari tizimidagi markaziy siymo - jaxon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning kamolotga intilishi ijodkorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muxit, ehtiyoj ijodkor shaxsni yaratuvchi kuchdir. Eng ilg'or fikrlar, mafkura, eng takomillashgan tafakkur faoliyat vositasida moddiylashganda, seziladigan narsa tusiga aylangandagina iqtisodiy tarbiyaning omiliga aylanadi. Iqtisodiy tarbiya bo'yicha maktabdan tashqari ishlar o'quv jarayoni bilan tarkiban va mantiqan uyg'unlashgan xolda bo'lishi kerak. To'garak faoliyati, iqtisodiy bilim anjumanlari va baxs-munozaralari o'quvchilarning yosh va aqliy xususiyatlariga muvofiq bo'lishi, umumiy tarbiyaviy jarayonga mos kelishi zarur.

Bunda iqtisodiy tarbiyaning o'quvchilar kasbiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatish umumiy mazmunining ajralmas, uzviy qismi ekanligini yodda tutish kerak. Belgilangan maqsadga qaratilgan tushuntirish ishlarini oila, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim, oliy va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida, maktabdan tashqari ta'lim maskanlarida, mahallalarda, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish institutlari va boshqa muassasalarda olib borish, turli tadbirlar o'tkazish xam muxim o'rin tutadi.

Maktabdan tashqari tadbirlarda estetik tarbiyani amalga oshirish - xissiyotning shakllanishi va rivoji, go'zallikni tushunish va unga tashnalik, shuningdek, shaxs tarbiyasining ajralmas qismi bo'lgan go'zallik qonunlari asosida yashash va yaratishga intilishdir.

Yillar davomida va turli bosqichlarda olib boriladigan o'quvchilarning estetik tarbiyasi turlicha tuziladi. Mashg'ulot shakli, maqsadi, mazmuni, pedagogik o'ziga xosligi, shuningdek, ish rejalari fan mantiqini xisobga olgan xolda, bolalar yoshi va imkoniyatiga ko'ra farqlanishi lozim.

O'quvchilarni serqirra, atroflicha ta'sir etuvchi estetik qadriyatlarga yo'naltirish foydalidir. Birinchi navbatda milliy qadriyatlar, ona zamin tabiati, milliy xalq san'ati, sharqning, O'zbekistonning badiiy madaniyati, tarixiga muxabbat tuyg'ularini rivojlantirish kerak. Bu borada asosiy manba sifatida badiiy estetik qadriyatlar, qadimiy san'at turlarini tanlash zarur. Milliy an'analarga boy adabiyot, tasviriy san'at, ayniqsa, Sharq miniatyura san'ati, xaykaltoroshlik, xunarmandchilik, musiqa va san'atning boshqa turlari (teatr, sirk va x.k.) xalqning o'tmishdagi va zamonaviy turmush tarzi; yashash joyi, kiyinishi, mehnat qurollari va xokazolar muxim o'rin tutadi, milliy san'at tarixiga, etnografiyasiga, me'morchiligiga va an'anaviy san'at turlariga aloxida e'tibor berish talab etiladi. O'quvchilarni tarbiyalash jarayonida xalq pedagogikasi asoslariga tayanish, sharq mutafakkirlarining dono fikr-muloxazalaridan, shuningdek, jaxon umuminsoniy qadriyatlaridan foydalanish ma'qul bo'ladi.

Bu aniqlangan bilimlar tizimi, estetik tuyg'ular, qiziqtdbirlar singdirish, o'rganish, fikrlash, muloxaza etish, munosabat, qimmatli yo'nalish, qarashlar, baxolar, g'oyalar, faoliyat (ijodiy, estetik), mukammallik, bilimni oshirish va o'z-o'zini kasbiy tarbiyalashdan iboratdir.

Maktabdan va maktabdan tashqari ishlarda estetik tarbiya mazmunini, birinchi navbatda, majmuiy, tizimli tatbiq etishga ko'ra uch xil maqsad uyg'unligi (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlanib boruvichi), psixologik va pedagogik jarayonlar mushtarakligiga, ta'lim jarayonida jamiyat talablarini e'tiborga olishga, yangicha bilimlarga amal qilish va xokazo qoidalar asosida tarkib topmog'i kerak. Ular asosida o'quvchi shaxsiyatiga nisbatan yo'nalish belgilanadi.

Bu maqsadga erishish uchun o'quvchilar bilan to'garak, fakultativ, tadbirlarda san'atshunoslik, san'atning ayrim turlarini, jaxon va milliy madaniyatni o'rganishning har xil shakllaridan foydalanish mumkin.

Maktabdan va maktabdan tashqari tadbirlarng mazmun va tuzilishini belgilashda o'quv-tarbiyaviy manbalardan keng foydalanish kerak.

Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki maktabdan va maktabdan tashqari ishlarda amalga oshirilayotgan va yana qayta tiklanayotgan turli dasturlarda shaxs shakllanishiga, ma'naviy kamolotiga, murakkab xayot choraxalarida ma'naviy mas'uliyat bilan yashashga o'rgatishni shakl-lantirishga aloxida e'tibor berish talab etiladi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyoti sharoiti tarkib topayotgan bir kezda o'quvchilarda turmushga va mehnatga yangicha munosabatni, layoqatni shakllantirish mehnat tarbiyasining asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda, albatta, ishlab chiqarishning asosiy shakllarini, ayniqsa, iqtisodiy munosabatlarning yangi-yangi omillarini, ularga tanish turlarini belgilab olish darkor..

O'quvchilarni bozor sharoitiga o'rgatishning o'zi ularning xalol va fidokorona mehnat tufayli foyda olish xaqidagi amaliy bilimlarini boyitadi.

Bolalarni jamoa bo'lib, hamkorlikdagi mehnat natijasida maxsulot soni va xizmat turlarini oshirish mumkinligiga ishontirish muxim xisoblanadi. Bolalarning qurilish maydonchalari, yordamchi yig'im-terim brigadalari saflarida xunarmandchilik bilan shug'ullanishlari, usta-shogird maktablariga qatnashib xalq amaliy san'atida, bemorlarga yordam ko'rsatish va nafaqaxo'rlarga xizmat ko'rsatish bo'limlaridagi, xovlilarni va ko'cha-ko'ylarni tartibga keltirishdagi, sanoat korxonalarida, xisoblash markazlari, shifoxonalar va maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ishlari aloxida qo'llab-quvvatlab boriladi. Ular bu tadbirlarng barchasidan ma'naviy foyda topish malakasini oshirib boradilar zero, bozor munosabatlari bugungi kunda jaxonda tan olingan moddiy barqarorlik va odamlarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirib turadigan birdan-bir vositadir. Bu munosabatlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun qat'iy intizomga, texnik va iqtisodiy bilimga, malakali mutaxassislarga, ishni to'g'ri tashkil qilishga asoslaniladi. O'quvchi bozor qarama-qarshiliklarini va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganib boradi.

Bugungi kunda mukammal iqtisodiy tarbiyani takomillashtirmasdan ish qilib bo'lmaydi. Shu bois o'qituvchi, sinf raxbari, maktabdan tashqari ta'lim muassasasi xodimlari nafaqat bilim berishlari, balki o'quvchilarda iqtisodiy faoliyat malakasini xosil etish, bozor munosabatlari sharoitida mustaqil fikrlashga o'rgatish lozim bo'ladi. Bolalarga savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi yangi iqtisodiy termin va tushunchalarni o'rgatish, ularni qanday qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ishga ijobiy yondashuvning rivoji, topqirlik, ixtirochilik, ishbilarmonlik, faollik va tashabbus tufayligina yuqori samara beruvchi foyda yuzaga kelishi mumkinligi tushuntirilsa, o'quvchilar iqtisodiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi.

Maktab birlashmalari, shirkatlari faoliyatini nazorat qilish, maktabning o'zini-o'zi boshqaruvi orqali olib boriladi. Bolalar tomonidan topilgan daromad ular ixtiyorida qoldiriladi. Bolalarning roziligi bilan bolalar mehnat birlashmalari, shirkatlar va korxonalardan daromad faqat ularga ish xaqi sifatida to'lanmay, balki maktab sarmoyasiga, jamoa tuzilmalari jamg'armasiga xam o'tkazilishi mumkin.

Maktabda kichik tadbirkorlik ishlarini tashkil etish o'quvchilarni mustaqil xayotga tayyorlashda muxim omil xisoblanadi. Bu jarayonda so'zsiz ularda bir-birini qo'llab-quvvatlash, mexribonlik, xomiylik, yordam kabi fuqarolik e'tiqodlari va fazilatlari shakllantirib boriladi.

Bozorning axloqiy va huquqiy me'yorlari bu insonning axloq me'yorlarining o'zginasidir. Bular-xalollik, berilgan so'zning ishonchli va qat'iyligi, batartiblik, ijrochilik, majburiy mehnatni tashkil qilish, kredit va qarzlarni qoplash, broker (vositachi)lik ishlarini olib borish, xushmuomalalik, sherikka, iste'molchiga bo'lgan xurmat va xokazolar. Bularning barchasi o'quvchiga singdirilishi lozim.

Maktabda rivojlangan nazoratli bozor munosabatlarini tashkil qilish, bo'lg'usi tadbirkor va ishbilarmon kishilarni shakllantirish, uddaburon xo'jalik yurituvchi, iqtisodiy fikr va mushoxadasi rivojlangan odamni tayyorlash imkonini beradi. Mehnat tarbiyasida bolalarni tizimli iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish,

iqtisodiy qonunlar va qarama-qarshiliklardan oqilona foydalana oladigan qilib tarbiyalash juda muximdir.

Bu tadbirlarng xammasi samarali kasbga yo'naltirish ishlarini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, kasb tanlagan o'smirlarga yordam berish va uning maxoratini, iqtidorini namoyon etish uchun xizmat qiladi.

Maktabdan tashqari tadbirlarda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llashda iste'dodli va zukko bolalarni aniqlash va tarbiyalash muxim ahamiyat kasb etadi. Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir. har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq taxlil etish, bolalarning o'ziga xos psixo-logik jixatlari va fazilatlari xisobga olish darkor.

Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarni namoyon etishda Hozirgi kunda, avvalo, maktab pedagogika jamoasi ruxiy-dagnostik tajri-balardan unumli foydalanishlari zarur. Bunda «Respublika Iste'dod Markazi» xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljallangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan xamoxang ishlab chiqish lozim. Bu soxada «Ulug'bek», «Oltin meros», «Iste'dod» jamg'armalari bilan hamkorlikda ish olib borish maqsadga muvofiqdir. Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishiga qobiliyatlarni aniq taxlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini xisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirishi imkonini yaratadi. Qobiliyatlarni rivojlantirishning daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qobiliyatning ma'lum bir darajasi istalgan o'quvchida mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

Ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida o'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dodli va iqtidorli to'garak a'zolari alohida rag'batlantirildi, ularga mukammallik uchun sharoit yaratildi, ularning ijobiy qiziqishlari, rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish namunali amalga oshirildi.

Iste'dodli bolalarning taniqli olimlar bilan ilmiy laboratoriyalarda shug'ullanishi, shoir, yozuvchi, rassom kabi san'at namoyondalari bilan hamkorlik qilishini tashkil etish muxim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muxitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa, Respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim-tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni respublikamiz mintaqalarining xududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o'quv rejalari va o'quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim. Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik hamda moliyaviy jihatdan to'liq ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muxofaza qilish uchun ularni ruhiy zarbalardan asrash yo'llarini aniqlash, ruhan yordam ko'rsatish, qattiq hayajonlanish xolatlarini o'rganish ularning ijodiy qobiliyatlari rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxassislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Res'ublika metodik kengashi tuzilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Kengash kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini muvofiqlashtirib, yo'naltirib, tashkil qilib boradi.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning kasb-hunarga yo'llash ishini tashkil qilishda turlicha o'quv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash, ularni kasb-hunarga yo'llash uslubiyati, psixologik, pedagogik va tashkiliy sharoitlarni yaratish

maqsadida maxsus o'quv dasturlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar ishlab chiqishda eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtiroklari tavsiya etiladi.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy, kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobit qadam faoliyatini amalga oshirish; akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish, rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish zarur.

Mazkur vazifalarni xal qilishda mahalla faoliyati muhim ahamiyatga ega. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mahallaning ustunligi shundaki, ko'p yillar davomida birga yashagan kishilar yagona do'st oilaga uyushganlar. Ular bir-birlarini, har bir oila va har bir bolani, ularning ota-onalarini va imkoniyatlarini yaxshi bilishadi. Mahallada ana'naviy tarbiyaning sharqona uslublari tarkib to'gan. Masalan, hashar usuli bilan ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilinib, og'ir daqiqalarda bir-birlariga yordam berishadi. Bu esa so'zsiz katta tarbiyaviy ahamiyatga ega va axloqiylikni rivojlantirishga, jamiyatning boshlang'ich negizi sifatida oilani mustahkamlashga yordam beradi.

Tahlim muassasalari negizida pedagogik, kasbiy, huquqiy, psixologik, ma'naviy va ma'rifiy bilimlar beruvchi «Ota-onalar o'quvi» faoliyatini tashkil etish, bola tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan oilalarni tegishli idoralar hamkorligida o'rganib, tajribalarini ommalashtirishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Maktabdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiyani amalga oshirishda quyidagi asosiy tadbirlarga ehtibor qaratish lozim bo'ladi:

- kasbiy tarbiya vazifalarni xal qilish uchun res'ublikaning barcha ilmiy kuchlari: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, oliy o'quv yurtlari, fan, tarmoq, davlat va nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari xamda ilmiy-pedagog bo'limlar faoliyatini birlashtirish zarur.

Maktabdan va maktabdan tashqari kasbiy tarbiya mezonini amalga oshirishni davriy tahlil qilish rejali, ayrim ilmiy yoki pedagogik jamoalarning takliflari bo'yicha o'tkazilishi ham mumkin. Lekin har qanday vaziyatda tahlil

qilishda ham ilmiy, xam amaliyotchi xodimlarning ishtirok etishi shart ekanligini unutmaslik kerak. Davriy ilmiy tahlil asosida tarbiyaviy tadbirlarng vazifalarini belgilash va tuzatishga da'vat etilgan bo'lsa, uning kundalik va doimiy tashkilotlari qatori amaliyotchi pedagoglarni ham keng jalb qilish lozim. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining uslubiy ishilariga alohida e'tibor berish kerak. Ular bolalar va o'smirlarni tarbiyalash bilan shug'ullanayotgan xodimlarning barcha toifalarini uslubiy yordam bilan tahminlashlari, ushbu tadbirlarng ilg'or tajribasi asosida to'garaklar va uyushmalar, maktablar va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining dasturlarini ishlab chiqadilar hamda ularni takomillashtiradilar.

Umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari yangi pedagogik tafakkur egasi, munosib shaxs, o'z ishining ustasi bo'lgan o'qituvchi va to'garak raxbariga muxtoj.

Shaxs sifatida bunday pedagog xodimlarning o'zi har tomonlama rivojlangan, bilimdon, keng ko'lamdagi umummadaniy va kasbkor ma'lumoti, ko'nikma va malakasiga hamda o'zligini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi shart.

Buning uchun har bir maktabdan tashqari ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini sarmoyadan (byudjetdan) tashqari mablag' to'ishni yo'lga qo'yish bilan boyitish talab etiladi.

Ikkinchi bob xulosasi.

Maktabdan va maktabdan tashqari tadbirlar amalga oshirishning samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri xalq ta'limi barcha tizimlari, bo'limlari, ilmiy va jamoat tashkilotlari faoliyatini aniq tashkil etishning doimiy nazoratiga, qolaversa, pedagoglar bu ishni olib borishdan qanchalik manfaaddor ekanliklariga bog'liq. Maktabdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlardan mahalliy sharoitlarni, o'quv yurtlarining xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy foydalanish lozim. Undan pedagogik asosda o'quvchilar jamoasida yuzaki foydalanishga urinmaslik kerak.

Maktabdan tashqari tadbirlarda kasb tanlashga yo'naltirish ishlari maxalliy sharoitlarga moslab aniq rejalar, tadbirlar ishlab chiqish uchun asos bo'lishi kerak. Ushbu kontsepsiya asosiy tarbiyaviy ish yo'nalishlarining mazmuni, maqsadlari, vazifalarini belgilashda va shubhasiz, xalq ta'limi tizimidagi barcha turdagi ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari, jamoatchilikning kuch-g'ayratini yoshlar tarbiyasi muammolarini hal qilishga yaxlit yondashishni o'z mazmuniga jamlab, o'sib kelayotgan yosh avlodni shakllantirishning aniq vazifalarini bajarishda dasturamal bo'lib xizmat qiladi.

III bob Tajriba – sinov ishlarini o'tkazish va natijalar tahlili..

3. 1. Tajriba – sinov ishlarini mazmuni va o'tkazish metodikasi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda ularning ruxiyatiga ta'sir etishda, quyidagi maqolardan foydalnib, tarbiya berish vositasi sifatida foydalanishimiz mumkin. Bu maqollar xalq og'zaki ijodi janri bo'lib avlodan-avlodga o'tib kelmoqda va xalqmizning ruxiyatiga singib ketgan. Maqollar boshlang'ich sinf o'qish, ona-tili, odobnoma darslarida ko'roq yoritilgan.

1-4-sinfda o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishlari maxalliy ixtiyojlar va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, shuningdek isdiqubol-larini belgilovchi chambarchas iboralar tavsiyalari asosida hamda maxalliy kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarning yo'nalishlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi. 1-4-sinf mehnat ta'limi darslarida o'quvchida kasb turlariga oid bilim, ko'nikma va malakalarni maktab joylashgan xududdagi imkoniyat va ehtiyojlarni hisobga olgan holda tanlanadigan kasb, asosida shakllantiriladi. Hozirgi sharoitni hisobga olgan holda ko'roq maktablarda mehnat ta'limi mashg'ulotlarining mazmuni asosida milliy xunarmandchilik kasblari yo'nalishida olib boriladi. Yirik sanoat ishlab chiqarish rivojlangan xududlardagi maktablarda mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni shu sanoat sohasiga oid zamonaviy kasblarga yo'naltirish imkoniyatlari yaratilishi lozim.

Tashkiliy vazifalar. Mehnat ta'limi bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun o'quv xonasi hamda unda maxsus ish joyi tashkil qilish va ularda xavfsiz va qulay mehnat sharoitlarini tashkil qilish. O'quvchilarni mashg'ulotlar uchun zarur materiallar hom ashyosi, asboblari bilan ta'minlash masalalar mexanizmlari bilan ishlashlarni tashkil qilish.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xo'jalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yo'nalishlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash ko'zda tutiladi. Maktablarda mehnat ta'limi mazmuni asosan quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

1. I-IV sinflar keng ko'lamda ishlatiladigan turli xil oddiy materiallar (qog'oz, rangli qog'oz, karton turlari, kalka, poralan, peno'las, paxta va matolar qiyqimlari, plastilin, simlar va boshqalar) bilan tanishtirish ulardan o'yinchoqlar va oddiy buyumlar yasash, xalq hunarmandchiligi to'g'risida boshlang'ich tushanchalar berish, o'quvchilarini o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga odatlantirish, uy-ro'zg'or buyumlarining kichraytirilgan nusxalarini modellar, maketlarni tayyorlashni, turli xil shakllar mehnat ta'limi darslariga ajratilgano'quv soatlarini yana bir soatga oshirish maqsadga muvofiqdir, chunki 1 soat davomida o'quvchilarga bajaradigan ishlari to'g'ri-sida umumiy nazariy ma'lumotlar berilsa, keyingi soatda esa aytilgan ish harakat usullari amalda bajariladi, buyumlarni yasash usullari, uslublari o'rganiladi.

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki ta'lim jarayoni mohiyati turli olimlar tomonidan turlicha tushunishganligi sababli didaktikaning ayrim tamoyillarini talqin qilish ham shunnigdek ularni bayon qilish tuzilishi ham turlicha bo'ladi. Mehnat ta'limi tamoyillarini bayon qilishda uni juftlab o'rganish prinsipini to'g'ri deb hisoblamoq kerak. Shunday qilganda mehnat ta'limi didaktikaning ayrim tamoyillari o'rtasidagi muayyan ob'ektiv mavjud aloqani ko'rsatish imkoniyati tug'iladi.

Tajriba-sinov ishlarini pedagogik amaliyot davrida amalga oshirish uchun 2011-2013 yillar mobaynida Toshkent shahar 135 -maktabning boshlang'ich sinflarida tajriba guruhlarida-amalga oshirildi, nazorat guruhlarida esa an'anaviy uslubda o'tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishning dastlabki izlanuvchan bosqichida o'quvchilarning kasb-hunar to'g'risidagi bilimlari borligini so'rab bilish va olingan natijalarni taxlil qilib, ular bilan ishlash yo'nalishini belgilab olishni maqsad qilib qo'ydik.

Tajriba davomida Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasb-hunar to'g'risidagi savolnomalar berildi. Olingan javoblar tahlilida 18 ta o'quvchi 12 ta kasb-hunarni nomini bilishligini, 24 ta o'quvchi 10ta kasb-hunarni nomini bilishligini, 18 ta o'quvchi esa 5 ta kasb-hunarni nomini bilishini aytishdi. Zamonaviy innovasion texnologiyalar asosida olib borilgan sinf va sinfqan tashqari ishlar jarayonida

o'quvchilarga 20 dan ortiq kasb-hunarni haqida malumot berildi. Tajriba yakunida o'quvchilarning bilimlari tekshirilganda kasb-hunarni haqida malumotga ega bulganlar soni ortganligi aniqlandi. Yani, 22ta o'quvchi 15 ta kasb-hunarni nomini bilishligi 28ta o'quvchi 10 ta kasb-hunarni nomini bilishligini, 10ta o'quvchi 7 ta kasb-hunarni nomini bilishligi malum buldi.

Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi

Daraja	Tajriba-sinovgacha bo'lgan o'quvchilar tarkibining miqdori	Tajriba sinovdan so'ng o'quvchilar tarkibining miqdori
Yuqori	18	22
O'rtacha	24	28
Quyi	18	10

Mehnatsevarlikni shakllanganlik darajasini aniqlashda o'quvchilarning egallagan bilim va tushunchalari hayotlarida qo'llashlari nazarda tutildi. Mehnatsevarlikni shakllanganligi shartli ravishda quyidagi-larda o'z ifodasini ko'rsatdi, mehnatsevarlik haqida egallagan tushunchalari o'quvchining xulqida bilimlari asosida aqlii rivojlanishida namoyon bo'ldi. Kichik yoshdagi o'quvchilar atrof-muhitga o'z munosabatini bildiradigan, tengdoshlaridagi mehnatsevarlik fazilatlarni qadrlaydigan bo'lib, ularni o'z faoliyatida namoyon eta boshladilar.

UCHINCHI BOB XULOSA

Mehnat tarbiyasini boshlang'ich sinf o'quvchilarining ongida uyg'otish o'qituvchilar oldidagi muhim vazifalardan biri ekanligini his etib, o'quvchilar bilan mehnatsevarlikka o'rgatishda tarbiyaviy tadbirlardan foydalanish muhim ekanligini asosiy sifatida e'tiborga olish lozim.

1. O'quvchilarning katta avlod an'analari o'zlashtirishiga oid tadbirlar o'tkazish.

2. Mutafakkir olimlarning mehnat-tarbiyasiga oid fikrlari bilan tadbirlarda to'laqonli tanishtirish.

3. Ma'lum kasb-hunarga qiziqishi hosil bo'lgan o'quvchilar bilan alohida tadbirlarni tashkil etish.

4. turli kasb-hunarga oid bo'lgan suhbat, tarbiyaviy tadbirlarni muntazam tashkil etish lozim deb hisoblayman.

O'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirishda boshlang'ich ta'limda xalq maqollari asosida estetik tarbiya mazmun-mohiyati bilan katta imkoniyatlarga ega.

Kasb-hunarni shakllantirish asosida o'quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy g'urur, yurt tinchligi, yuksak axloqiy fazilatlar, kasb-hunar tuyg'ulari muhim mezonlardan bo'lib hisoblanadi.

O'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirish ta'lim-tarbiya jarayoniga yaxlit va tizimli yondoshuvni talab etadi.

Bu borada ta'lim-tizimiga texnologik yondoshuv, yangi pedagogik texnologiyalardan, boshlang'ich ta'limning eng ilg'or tajribalaridan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdi

Umumiy xulosa

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni komil inson bo'lib voyaga yetishida asosiy o'rin tutgan. Mehnat tarbiyasi yoshlarni jamiyat manfaati uchun ishlashga chaqirish bilan birga ustozlar va ota-onalarning mehnat tarbiyasi sohasidagi vazifalari nimalardan iborat ekanligini ham ko'rsatganlar.

Ta'lim-tarbiyaga yaxlit jarayon sifatida yondoshib, sinfdan tashqari ishlarni ta'lim jarayoni bilan uzviy aloqada tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirish maqsadga muvofiq.

Olib borilgan tadqiqot ishimiz natijalariga asoslanib quyidagi tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

- O'zbekiston Res'ublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunar g'oyasini shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

- haqiqiy vatan'arvar va mehnatsevar, bor imkoniyatini yurt tinchligi, xalq faravonligi yo'lida xizmat qilishdan ayamaydigan ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga doir metodik majmualar, axborot-ko'rgazmali materiallar yaratish;

- boshlang'ich ta'lim fanlari mazmuniga kasb-hunarni singdirish;

- o'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirishga qaratilgan ilg'or pedagogik texnologiyalarning zamonaviy metod va usullarini izlab to'ish va amaliyotga joriy etish;

- o'quvchilarda kasb-hunarni shakllanganlik darajalari hamda ma'naviy shakllanib borish monitoringini yaratish. O'qituvchilar tomoni-dan borilayotgan bilimning o'quvchilar tomonidan qay darajada o'zlashtiri-layotganligini doimiy nazorat qilib borish;

- boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi ma'naviyatini shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

- boshlang'ich turkum fanlarini o'qitish jarayonida kasb-hunar asosida o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish bo'yicha ijtimoiy pedagogik yo'nalishda

ilmiy-tadqiqotlar olib borish va hokazo. Bundan tashqari boshlang'ich ta'lim jarayonida quyidagilarni amalga oshirish lozim.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirishning muntazam ravishda takomillashtirish.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasb-hunarni shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar uyushtirish;

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni tarbiyalash jarayonida kasb-hunar fazilatini shakllantirish, ayniqsa, o'zlari ta'lim olayotgan maktabda mehnat qilishga o'rgatish;

Boshlang'ich ta'lim jarayonida O'zbekiston mustaqilligi tufayli umuminsoniy, milliy ma'naviy qadriyatlardan keng foydalanish;

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllanti-rishda o'zbek xalqining milliy urf - odatlaridan foydalanish;

O'quvchilarning kasb-hunar fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan tashviqot-targ'ibotchilik faoliyatini takomillash-tirishga alohida ahamiyat berish;

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllanti-rishning maqsad va vazifalari, mazmun, shakl va metodlar birligini ta'minlash hamda o'quvchi shaxsini kamol to'tirish;

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllan-tirish maqsadlari va vazifalarini umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida amalga oshirish.

Xalq maqollari yordamida o'quvchilarda kasb-hunarni shakllantirish mazmuni, ish shakllari va metodlarini belgilab beruvchi pedagogik 'rintsi'lar, ya'ni tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqligi, jamoada tarbiyalash va jamoaga suyanib ish ko'rish o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, tarbiya jarayonining yaxlitligi tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va shu kabi kasb-hunar faoliyatning muntazamligi, doimiyligi va uzluksizligiga erishish;

Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarda kasb-hunarni tarbiyalashda maktab, oila va jamoatchilikning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish va kasb-hunarni tarbiyalash natijalarini keng targ'ib qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

Normativ huquqiy hujjatlar:

1. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,“SHarq” nashriyoti
2. Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dastur (Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori) 1997 yil T.,“Sharq” nashriyoti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari

1. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch”. Toshkent “Ma'naviyat” 2008 yil.
2. I.A.Karimov “Mamlakatni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatni barpo etish ustivor maqsadimiz”. Toshkent “Adolat” gazetasi. 2010 yil.
3. I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” Toshkent – «O'zbekiston» -2011 y

Asosiy adabiyotlar

1. R.A. Mavlonova va boshqalar “pedagogika” T., “O'qituvchi” 2008 yil
2. R.A.Mavlonova, Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat va uni o'qitish metodikasi” TDPU. 2007 yil
3. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat ta'limidan amaliy ishlar” TDPU 2007 yil
4. Sanaqulov X.R. Xodieva D.P “Mehnat” Ikkinchi sinf o'quvchilari uchun darslik. T. “Sharq” 2012 yil.
5. R. Hasanov, H. Egamov “Tasviriy sa'nat va badiiy mehnat” T. “O'qituvchi” 1997 yil.
6. V. Pereverten. “O'quvchilarda ijodkorlikni shakillantirish” T. “O'qituvchi”. 1990y.
7. Nurmatova M.Sh. Hasanova Sh.T “Yumshoq o'yinchoqlar” Toshkent. TDPU. 2005 y

8. Nurmatova M.Sh. “Mehnat tarbiyasi” Toshkent. TDPU. 2005 y
9. Sanakulov H. «Kasblar alifbosi» «Yurist-Mediya» 1989 y
10. A.Fozilov. Donolar mehnat tarbiyasi haqida. Toshkent. 1992 yil.
11. R.A.Mavlonova, B.Normurodova. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi”. Toshkent “Fan” 2008 yil.
12. R.G.Nozimov. O’quvchilarning mehnat tarbiyasida kasb-hunarga tayyorlash. Toshkent. “O’qituvchi” 1991 yil.
13. Z.Ochilov. Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda kasb tanlashga shakllantirish. Toshkent. “O’qituvchi”. 1996 yil.
14. I.Xasanov. Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. Toshkent. “O’zbekiston” 1993 yil.
15. M.Haydarov. Kichik yoshdagi maktab o’quvchilarining mehnat tarbiyasida xalq an’analaridan foydalanish. Toshkent “Yozuvchi” 1995 yil.
16. Magzumov P.T. va boshq. O’quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: O’qituvchi, 1991. – 208 b.
17. Musurmonova O. O’quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. - T.: Fan, 1993. - 105 b.
18. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o’quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: ped.fan.dokt. ... diss. – T.: 2000. – 305 b.
19. Ochilov M., Ochilova N. O’qituvchi odobi. - T.: O’qituvchi, 1998. - 94 b.
20. Babanskiy Yu. K. Hozirgi zamon umumiy tahlim maktabida o’qitish metodlari. T.: «O’qituvchi», 1990 – 230 bet.
21. Bulatov S. S. Yoshlarga hunar o’rgatishning milliy-anhanaviy asoslari. T.: RM. 1999 – 20 bet.
22. Vorobyov L. I. Mehnat tahlimi va kasb tanlashga yo’llash metodikasi. – T.: «O’qituvchi», 1980 – 280 bet.
23. Davlatov K. D., Chichkov V. A. O’quvchilarni kasb tanlashga yo’llash. – T.: «O’qituvchi», 1978 – 144 bet.

24. Karimov I. I. Mehnat tahlimi darslarining samaradorligini oshirish. Qo'qon.: 1995 – 40 bet.
25. Magzumov P. T. O'quvchilarni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash. – T.: «O'qituvchi», 1991 – 206 bet.
26. Mavlanova R. va boshqalar. Mehnat ta'limi metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1986 – 248 bet.
27. Mazur V. A., Davidova L. G. Milliy hunarmandchilikka o'qitish jarayoni va uni tashkil qilish (ruschadan B. Rahimjonov tarjimai) – T.: «NIPO», 1996 – 18 s.
28. Nishonaliev U.N. pedagogika kursi Darslik. - T.: O'qituvchi, 1997. - 232 b.
29. Tursunov I. Xalq ta'limining dolzarb muammolari. – T.: O'qituvchi, 1990. – 140 b.
30. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – qarshi. Nasaf, 2000. - 79 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbek xalq maqollari. Toshkent "Fan" 1984 yil.
2. O'zbek xalq ertaklari. Toshkent "Yulduzga" 1987 yil.
3. Kasbiy takomil va faoliyat samarasi Metodik tavsiya va ko'rsatmalar. 2-to'plam. – Jizzax. JDPI, 2000. – 24 b.
4. Tolipov O'. Tajriba-sinov ishlarini o'tkazishda yangi pedagogik texnologiyalar. «Xalq tahlimi» jurnali. №2. 1999 – 63 bet. 2000 yil.

Ilmiy jurnalidagi maqolalar

1. Mehnat tahlimidan umumiy o'rta tahlim maktablari uchun datur. Dasur. «Tahlim taraqqiyoti». IV maxsus son – 1999.
2. Pedagogika A. Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 1996 – 200 bet.
3. Sayidaxmedov N. S. pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – T.: «Yangi asr avlod», 2001 – 40 bet.
4. Tolipov O'.Q.,M.Usmonboeva. pedagogik texnologiya asoslari // «Maktab va hayot» jurnaliga ilova. – T.: O'zPFITI, 2003. – 32 b. 151. Tursunov I.Y.,

5. Yusupov E.Yu. Inson kamolotining mahnaviy asoslari. –T.: Universitet, 1998. – 225 b.
6. Yusupov E., Yusupov O'. Mahnaviy kamolot va jamiyat taraqqiyoti. –Xo'jand, 1996. - 170 b.

INTERNET SAYTLARI

1. [www/Norma.uz](http://www.Norma.uz) O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami portali. 2013 yil 25 fevral
2. Bob kizlik. Lesson planning, Lesson plan Formats and Lesson plan Ideas.. www.ADPRIMA.com.
3. Okolelov O.P. Distantionnoe obuchenie: suopnostg, didakticheskie osobennosti texnologii. <http://www.lipetsk.ru/legi>

TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI

№	O'zbek	English	Русский
1.	Mehnat	Labour	Труд
2.	O'qituvchi	Teacher	Учитель
3.	O'quvchi	Pupil	Ученик
4.	Adolatli; haqqoniy	Just	Точно, как раз
5.	Amaliy	Practical	Практический
6.	Axloq, xulq	Behavior	Поведении
7.	Bahslashmoq	Argue	Спорить
8.	Bilmoq, aniqlamoq	Find out	Узнать
9.	Bolalar	Chedren	Дети
10.	Darslik	Text book	Учебник
11.	Do'q, po'pisa, tahdid	Threat	Угроза
12.	E'tiroz bildirmoq, qarshi chiqmoq	To mind	Иметь против
13.	Hamma vaziyatda	At all events	Во всех случаях
14.	Haqiqiy, to'g'ri	Truthful	Правдивый
15.	Hodisa, voqea	Event	Событие, случай
16.	Ilmiy	Scientific	Научный
17.	Inson	Human	Человек
18.	Ishonch	Trust	Доверять
19.	Jumboq, qiyin ahvolga olib kelmoq	Puzzle	Головка, загадка
20.	Kamtar	Modesty	Скромный
21.	Kayfiyat	Temper	Прав
22.	Kechirmoq	To forgive	Прощать
23.	Kelishmoq	A gree	Соглашаться к кем либо
24.	Kurashmoq	Struggle	Барьба
25.	Maktab	School	Школа
26.	Maqsad, vazifa	Goal	Цель, задачи
27.	Masalan	For instance	Например
28.	Muhim, ahamiyatli	Important	Важный
29.	Natijada, pirovardida	As a result	Значительный
30.	Nazariya	Theoriya	Теория
31.	Noqulay	Uncomfortable	Не удобный
32.	Odat	Habit	Привычка
33.	Oldini olmoq	Prevent	Предотвращать
34.	Oxirgi	The last	Последний
35.	Qarama- qarshi	Opposite	Противоположный
36.	Qarshi	Against	Против, о,об
37.	Qiyoslash	Comparision	Сравнение
38.	Qobiliyatli	Capable	Способный
39.	Rozilik	Agreement	Соглашение

40.	Sabab	Cause	Причина
41.	Saxiy	Kind	Добрый
42.	Samimiy	Cordial	Сердечный
43.	Sust	Slow	Новерно
44.	Tahlil qilish	Analyse	Анализировать
45.	Tajriba, amaliyot	Practice	Практика
46.	Tartib	Order	Строгий,суровый
47.	Umumiy	General	Общий,всеобщий
48.	Usul, yo'l	Means	Способ, средство
49.	Vaziyat, mavqe, o'rin, tutgan o'rni	Position	Положение
50.	Voqea, holat	Occasion	Случай возможность
51.	Yondashmoq	Approach	Приближение

ILOVALAR